

POSTDA



Gazeta 1930-yil 12-maydan
chiqa boshlagan

НА ПОСТУ * AT THE POST

O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

QO'RIQLASH XIZMATI YANGI BOSQICHDA



Iftixor

KICHIK SERJANTNING CHEMPION QIZI

Yaqinda Toshkent shahri mezbonlik qilgan boks bo'yicha o'smirlar va kichik o'smirlar o'rtasidagi Osiyo chempionati ko'plab yangi yulduzlarni kashf etdi, desak, mublag'a bo'lmaydi. 15 yosh toifasidagi bahslarda mamlakatimiz terma jamoasi jami 27 ta medal jamg'arib, qit'amizda tengsiz ekanini yana bir bor namoyish etdi.

22



ICHIMIZDAGI «TARTIB POSBONI» UYG'OQMI?



17

MUZEYGA BORASIZMI yoki CHOYXONAGA?



21

RAQAMLASHTIRISH VA QULAYLIK SARI

Mamlakatimizda davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimini tubdan isloh qilishga, jumladan migratsiya va personallashtirish sohasini raqamlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu o'zgarishlar fuqarolar uchun qulaylik yaratish, ortiqcha ovoragarchiliklarni bartaraf etish bilan birgalikda, vaqt va resurslarni tejash imkonini bermiqda.

Natijada aholiga davlat xizmatlari ko'rsatish sifati tobora yaxshilanib, bir qancha ijobiy ko'rsatkichlarga erishilmoqda. Muhtaram Prezidentimiz tomonidan yaqinda qabul qilingan migratsiya sohasiga doir qaror bilan nafaqat aholiga qulayliklar, raqamlashtirilgan tartiblar joriy qilinmoqda, balki zimmamizga ham qator vazifalar yuklanmoqda.

«O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Migratsiya va personallashtirish departamenti to'g'risida»gi nizom tasdiqlanib, Departamentning vazifa va funksiyalari, huquq va majburiyatlari, javobgarligi, faoliyatni tashkil etish tartibi belgilandi.

– 2026-yil 1-sentabrdan boshlab talaba bilan yotoqxonaga joylashish bo'yicha shartnoma tuzilganda, uni bir vaqtning o'zida yotoqxonaga turgan joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilishini yo'lga qo'yish belgilangan bo'lib, hozirgi kunda Oliy ta'lim, Raqamli texnologiyalar vazirliklari tizimlari bilan IIVning «Manzil» tizimini integratsiya qilish ishlari amalga oshirilmoqda.

Buning natijasida, talaba bilan ta'lim muassasasi o'rtasida yotoqxonaga joylashish bo'yicha shartnoma tuzilganda, bir vaqtning o'zida (kompozit tartibida) yotoqxonaga avtomatik tarzda turgan joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tkaziladi. Mazkur kiritilayotgan o'z-

Mazkur qaror bilan, yashash joyi va turgan joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazishning respublika bo'ylab yagona tartibi joriy etildi.

Qarorga ko'ra, fuqaroni yashash joyi va turgan joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazish har ikki tomonning (mulkdor va fuqaro) ishtirokida amalga oshiriladi va ularning roziligi qog'oz ko'rinishida emas, «Face-ID» yoki «Mobile-ID» tizimi orqali tasdiqlanadi. Turarjoy mulkdori va ro'yxatda turuvchi shaxs(lar) yashash va turgan joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tish uchun o'zlariga qulay bo'lgan joydagi ichki ishlar organlarining migratsiya va personallashtirish bo'limlariga hamda davlat xizmatlari markazi, «Aqlli migratsiya shoxobchasi» orqali shaxsan yoxud YAIDXP, «E-xabar berish» tizimi orqali onlayn tarzda murojaat qilishlari mumkin.

Bundan tashqari, 2026-yil 1-avgustdan boshlab, aholiga yanada qulaylik yaratish migratsiya sohasidagi davlat xizmatlarini onlayn tarzda ko'rsatish maqsadida «Passport-visa» mobil ilovasi orqali migratsiya va personallashtirish sohasida ko'rsatib kelinayotgan davlat xizmatlarini birlashtirgan holda elektron davlat xizmatlari taqdim etiladi. Bunda mobil ilovaning chat-bot funksiyasi orqali sun'iy intellekt yordamida fuqarolarni



Ulug'bek TOSHXO'JAYEV,
IIV huzuridagi Migratsiya
va personallashtirish
departamenti boshlig'i,
polkovnik.


platformasi yaratilayotgan bo'lib, u orqali «rozilik»larni yuzni tanib olish (Face-ID) funksiyasidan foydalangan holda masofadan turib amalga oshirish imkoniyati paydo bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bir necha farmon va qarorlariga asosan bugungi kunda 85 ta xorijiy mamlakat fuqarolariga O'zbekiston Respublikasida 30 kungacha vizasiz bo'lish tartibi joriy etilgan. Buning natijasida O'zbekiston Respublikasiga kirib kelayotgan chet el fuqarolarining soni tobora ortib bormoqda.

Oxirgi yillarda ayrim chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tomonidan o'ziga berilgan imtiyoz va preferensiyalardan to'g'ri foydalanmasdan respublikamiz hududiga kirib kelib, mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi tasdiqnomasiz noqonuniy mehnat faoliyati bilan shug'ullanish holatlari uchramoqda. Shunga ko'ra, qaror asosida noqonuniy mehnat faoliyati bilan shug'ullanayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni aniqlab qonuniy chora ko'rish tartiblari belgilanyapti. Ushbu turdagi huquqbuzarlik uchun chora ko'rish vakolati Ichki ishlar vazirligiga berilmoqda.

O'rni kelganda, fuqaroning ro'yxatdan o'tgan manzilidan boshqa manzilga yashash uchun o'tgani haqida o'n ish kunidan ortiq muddatda qayta ro'yxatdan o'tmasdan yashashi, shuningdek, pasport tizimi qoidalariga rioya etish uchun mas'ul bo'lgan shaxs tomonidan o'z turar joyida fuqaroning yashash joyi yoki turgan joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tmasdan yashashiga yo'l qo'yilishi, qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortish uchun asos hisoblanishini ta'kidlash o'rinlidir.

Xulosa qilib aytganda, sohada amalga oshirilayotgan yangilanishlar va raqamlashtirish jarayonlari fuqarolarga keng qulayliklar yaratmoqda. Ortiqcha qog'ozbozlik, navbat kutish va sarsongarchiliklar sezilarli darajada qisqardi. Davlat xizmatlarining shafqofligi va tezkorligi ta'minlanib, aholi roziligi ortib bormoqda. Zero, bu «Inson qadri uchun» tamoyilining amaliy ifodasi sifatida xizmat qilmoqda.



Ichki ishlar organlarining migratsiya va personallashtirish sohasiga oid yangi normativ hujjatlar loyihalari va raqamlashtirish bo'yicha «yo'l xaritasi» tasdiqlandi.

Bundan tashqari, qaror bilan aholiga quyidagi qulayliklar yaratilmoqda:

– 2026-yil 1-maydan boshlab eksperiment tariqasida Toshkent viloyatining Qibray hamda Samarqand viloyatining Narpay tumani IIB huzuridagi Migratsiya va personallashtirish bo'linmalarida o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish imkonini beruvchi «Aqlli migratsiya shoxobchasi» qurilmasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Shoxobchadagi davlat xizmatlari turlari va ko'lami bosqichma-bosqich oshirib boriladi. Identifikatsiyalovchi ID-kartani rasmiylashtirish uchun, yashash joyi hamda turgan joyi bo'yicha ro'yxatga olish uchun ariza yuborish kabi xizmat ko'rsatish turlari shular jumlasidandir.

Bir yil davomida eksperiment natijasidan kelib chiqqan holda, «Aqlli migratsiya shoxobchasi»ni respublikaning boshqa hududlarida, shuningdek, savdo va ko'ngilochar markazlar, turistik hududlarda joriy etish rejalashtirilmoqda.

gartirishlar talabalarni turgan joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazishda ortiqcha ovoragarchiliklarning oldini olish hamda byurokratik tartibotlarni qisqartirishga xizmat qiladi.



Joriy yilning 5-may kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini yashash va turgan joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazish hamda ro'yxatdan o'tkazilganligini bekor qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi qarori qabul qilindi.



qiziqirgan savollarga avtomatik tarzda javob berish modulini ishga tushirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ichki ishlar organlari sohasidagi davlat xizmatlarini olishda shaxslar tomonidan qog'oz ko'rinishida yoki yozma ravishda taqdim etilishi shart bo'lgan turli ko'rinishdagi «rozilik»larni berish uchun «E-Rozilik» elektron

KENG QAMROVLI O'RGANISHLAR

Navoiy viloyatida jinoyatchilikning oldini olish, mahallalarda xavfsiz muhitni ta'minlash va ichki ishlar organlari faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida Ichki ishlar vaziri o'rinbosari, polkovnik Diyorbek Sattarov rahbarligidagi ishchi guruh keng qamrovli o'rganishlar olib bordi.

O'rganishlar Qiziltepa tumanidan boshlanib, keyinchalik Navoiy shahri, Karmana, Xatirchi, Nurota tumanlari, G'ozg'on shahri, shuningdek viloyatning olis shimoliy hu-

dudlari — Tomdi, Uchquduq tumanlari va Zarafshon shahrida davom ettirildi.

Ishchi guruh har bir hududda ichki ishlar bo'limlari faoliyati, kriminogen vaziyat,

jamoat xavfsizligini ta'minlash, mahalla yetiligi bilan hamkorlik, fuqarolar murojaatlari bilan ishlash, ijtimoiy profilaktika, xotin-qizlar va yoshlar bilan manzilli ishlash hamda bo-

zorlar, sanoat korxonalarini va chekka hududlarda xavfsizlikni ta'minlash holatini atroflicha o'rgandi. Mas'ullarga jinoyat va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, «Xavfsiz va raqamli mahalla» tamoyilini keng joriy etish, kuzatuv kameralari va tashvish tugmalari sonini oshirish, profilaktik targ'ibot ishlarini kuchaytirish hamda aholi bilan manzilli ishlash bo'yicha aniq vazifalar belgilab berildi.



Vazirlik ishchi guruhining Navoiy viloyatidagi o'rganishlari yakunida kengaytirilgan tahliliy yig'ilish o'tkazildi. Yig'ilishda mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish, jinoyatchilikni jilovlash, aholining ijtimoiy-maishiy muammolarini ijtimoiy profilaktika orqali hal etish,

xizmat intizomi va qonuniylikka qat'iy rioya qilish masalalari muhokama qilindi.

O'rganishlar davomida aniqlangan kamchiliklar tanqidiy tahlil qilinib, har bir hudud uchun aniq vazifalar belgilab berildi. Xizmat faoliyatida yuqori natijalarga erishgan bir guruh xodimlar esa munosib rag'batlantirildi.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.

Halollikni shior qilgan xodimlar

VIJDON SOTILMAYDI



IIV huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti 3-min-taqaviy hudud 7-son tergov hibsxonasi tartibot xodimi, safdor Sardorbek Namozov halollik va qonun ustuvorligini hayotiy tamoyil deb bilgan xodimlardan. Xizmat jarayonida yuz bergan bir holat uning kasbiga bo'lgan sadoqati va pok vijdonining ifodasi bo'ldi.

Tergov hibsxonasida saqlanayotgan mahkumlardan biri belgilangan tartib-qoidalarni chetlab o'tib, uyda-gilari bilan telefon orqali gaplashishda yordam berishni so'raydi. Buning evaziga safdor Sardorbek Namozovga 300 AQSH dollari miqdorida pora taklif qiladi. Biroq qonun va vijdonni har qanday manfaatdan ustun qo'yadigan xodim ushbu taklifni qat'iy rad etdi. Mahkumga bu harakati jinoyat ekanini tushuntirishlari esa naf bermadi. Holat yuzasidan belgilangan tartibda rahbariyatga xabar berib, tegishli choralar ko'rilishini so'radi.

Safdor Sardorbek Namozovning bu harakati hamkasblari uchun ibrat, yosh xodimlar uchun esa haqiqiy namuna bo'ldi. Zero, xizmat kiyimiga munosib bo'lish, avvalo, qonunga sadoqat va pok vijdon bilan o'lchani. Bugun yurtimizda korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashish, ichki

ishlar organlarida ochiqlik va adolat tamoyillarini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ana shunday jarayonda safdor S. Namozov kabi halol va fidoyi xodimlarning faoliyati alohida e'tirofga loyiq.

– Ichki ishlar organi xodimining obro'si xalq ishonchi bilan o'lchani. Kasbimni yaxshi ko'raman, har qanday adolatsizlikka qarshi keskin kurashish – asosiy maqsadim. Uch nafar o'g'lim bilan sport mashg'ulotlarida qatnashaman, – deydi safdor S. Namozov.

Halollikni hayot mezoniga aylantirgan insonning xizmati ham, obro'si ham el orasida hamisha yuksak bo'ladi. Sardorbek Namozov ana shunday sharaflil yo'ldan bormoqda.

Umida MAMADALIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.

QALBAKI CHIPTA IZIDAN...



Xizmatga sadoqat va halollik, olijanoblik har bir xodimning kundalik faoliyati davomidagi bosh mezon va vijdon amri bo'lmog'i lozim. Zero, o'z vazifasiga sidqidildan, vijdonan yondashgan inson jamiyatda munosib obro'-e'tibor topadi.

Taxiatoshlik To'raboy Boltayev (ism-shariflar o'zgartirildi) turmush o'rtog'i bilan qo'shni davlatda yashaydigan qarindoshlarining oilaviy marosimiga borish uchun xususiy aviakassadan chipta xarid qildi. Biroq belgilangan kuni katta umidlar bilan aeroportga kelgan er-xotin kutilmaganida achchiq haqiqatga duch keldi: ular sotib olgan aviachiptalar elektron bazada mavjud emas edi. Shu tariqa, soddadil yo'lovchilar reysdan qolib, qalloblik qurboniga aylandi.

Shundan so'ng T.Boltayev soxta chiptalarni sotgan MCHJ direktori D.Matliyevga nisbatan qonuniy chora ko'rishni so'rab huquqni muhofaza qilish organlariga murojaat qildi. Mazkur holat yuzasidan tergovga qadar tekshiruv harakatlari TXTB Nukus aeroportida xavfsizlikni ta'minlash bo'limi boshlig'i, mayor B.Qutlimuratov tomonidan olib borildi.

Bundan vahimaga tushgan MCHJ rahbari qilmishidan pushaymon bo'lish o'rniga, jinoyatni «yopdi-yopdi» qilish payiga tushdi. U sodir etilgan qonunbuzarlik yuzasidan chora ko'rmalik hamda to'plangan hujjatlarni yo'q qilish evaziga mayor B.Qutlimu-

ratovga 3 million so'm miqdoridagi pulni pora tariqasida taklif etdi.

Mayor B.Qutlimuratov unga bu harakati og'ir jinoyat ekanligini tushuntirib, huquqiy oqibatlaridan ogohlantiradi. Ammo D.Matliyev niyatidan qaytmaydi. Shundan so'ng qasamyodiga sodiq xodim holat bo'yicha rahbariyatga bildirgi bilan murojaat qiladi.

Mazkur bildirgi asosida huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda tezkor tadbir o'tkazildi. Tadbir davomida MCHJ direktori D.Matliyev xizmat xonasida xodimga pora berayotgan vaqtda qo'lga olindi.

Qilmishini pul bilan yopmoqchi bo'lgan kimsa endi nafaqat firibgarlik, balki pora berish jinoyatini sodir etgani uchun ham qonun oldida javob beradi.

Xulosa o'rnida aytganda, korruptsiya – taraqqiyot kushandasi, jamiyat rivojiga g'ov bo'luvchi jiddiy to'siq. Pora olgan ham, pora bergan ham qonun oldida birdek javobgar, jinoyatga esa jazo muqarrardir.

Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.

Chilonzor tajribasi



«NAZORAT MASKANLARI» —

JINOYATGA TO'SIQ

Poytaxtimizning Chilonzor tumani IIOFMB 3-sonli IIB hududida 15 ta mahalla mavjud. O'tgan yilgi tahlillarga ko'ra, ularning 3 tasi «qizil» toifada edi. Tizimli va maqsadli sa'y-harakatlar samarasi o'laroq bugun hududda bironta ham «qizil» mahalla qolmadi.

«JINOYAT O'CHOG'I»DAN
XAVFSIZ HUDUDGA

«Navbahor» mahallasi hududidagi «Chilonzor» metro bekating chiqish joyi ilgari tumanning «jinoyat o'choqlari»dan biri edi. Har 5-10 daqiqada 2 mingga yaqin yo'lovchi oqimi kuzatiladigan bu yerda firibgarlik, bezorilik va o'g'rilik kabi jinoyatlar tez-tez sodir etilardi. Vaziyatni tubdan ijobiy tomonga o'zgartirish maqsadida, aynan mana shu nuqtada zamonaviy «Nazorat maskani» tashkil etildi.

– Hudud to'liq kameralashtirilib, ushbu maskanga integratsiya qilingan, – deydi 3-sonli IIB boshlig'i vazifasini bajaruvchi, podpolkovnik Murodjon Shodmonov. – Xodimlarimiz nafaqat piyoda patrul sifatida hududni aylanib yurishadi, balki «Nazorat maskani»dan turib atrofini kaftdagidek kuzatishadi. Bu nafaqat jinoyatchilikning barvaqt oldini olish, balki sodir etilgan har qanday huquqbuzarlikni o'z vaqtida fosh etishda beqiyos ahamiyatga ega. Mazkur maskan xuddi tirik organizm kabi kecha-yu kunduz bir maromda ishlaydi. O'rnatilgan zamonaviy kuzatuv kameralari maskanning «ko'zi va qulog'i» bo'lib, har bir harakatni sinchkovlik bilan qayd etib turadi. Maskan mavjudligining o'ziyoq har qanday qing'ir niyatli kimsani sergak torttiradi, jinoyatga jazo muqarrarligini eslatib turadi.

Darhaqiqat, yaqinda sodir etilgan bir holat buning isbotidir. Shu hududdagi bekatda 131-yo'nalishli avtobusga chiqqan fuqaro G.X.ning «iPhone 16 Pro

Max» rusumli telefoni kissavurlik yo'li bilan o'g'irlangan edi. Xodimlar mazkur jinoyatni hududdagi kuzatuv kameralari orqali tez fursatda fosh etishdi.

HAMKORLIK SAMARASI

«Nazorat maskani» atrofida noqonuniy savdo-sotiq bilan shug'ullanuvchi kimsalar hamda tilanchilikni kasb qilib olganlarning «mashg'ulot»lariga chek qo'yildi. Bugungi kunda mazkur hududda «Navbahor» mahallasi profilaktika inspektori, katta leytenant Ibrohim Shukurullayev, IIOFMB PPX 1-otryadi guruh komandiri, katta serjant Farruh Jumaboyev, PPX 1-otryadi inspektori, kichik serjant Baxtiyor Xo'janov, safdor Dilinur Tolipova hamda Qo'riqlash xizmati xodimi, safdor Javohir Vohidov kabi o'z kasbiga sodiq osoyishtalik posbonlari namunali xizmat olib borishmoqda.

Shuningdek, Akademiya kursantlari amaliyot jarayonida bevosita ish o'rganib, nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg'unlashtirmoqda. Zimmasidagi mas'uliyatni chuqur his etgan fidoyi xodimlarning sergakligi va hushyorligi natijasida maskan atrofida nafaqat jamoat tartibi, balki

fuqarolar xavfsizligi ham to'liq ta'minlanmoqda. Ularning kundalik faoliyatidagi qat'iyati va kasbiy mahorati esa hudud ahli hamda yo'lovchilarning ichki ishlar organlariga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Shunday «Nazorat maskanlari»dan ikkinchisi «1-Qatortol» mahallasidagi «Parus» va «Qatortol» savdo majmualari oldidagi yo'l bo'yida tashkil etildi. Bu loyihani tadbirkorlar ham mamnuniyat bilan kutib olishdi. Kelgusida 3-sonli IIB hududining odamlar ko'p to'planadigan nuqtalarida yana 3 ta mana shunday maskan barpo etish rejalashtirilgan. Tez orada ular ham

belgilangan joyda qad rostlab, fuqarolar xavfsizligini ta'minlashga xizmat qila boshlaydi.

– Ushbu nazorat maskanining ochilgani biz uchun ayni muddao bo'ldi, – deydi «Parus» savdo majmuasi bosh menejeri Sherzod Yo'ldoshev. – Endi savdo majmuasiga kelayotgan fuqarolarning xavfsizligi ishonchli ta'minlanmoqda. Bu kabi tizimli yondashuv majmua faoliyatining samaradorligini kafolatlaydi.

RAQAMLI YECHIM

Innovatsiyalar faqat ko'chalarga emas, mahalla ichiga ham kirib bormoqda. Masalan, «Beshchinor» mahallasidagi ko'p qavatli uy yo'laklariga 124 ta zamonaviy

ma'lumotlar peshlavhasi o'rnatildi. Unda mahalla yettiligining ma'lumotlari, huquqbuzarlik, jinoyatchilik hamda kiberxavfsizlik bo'yicha ogohlantirishlar va hatto «Mening inspektorim» ilovasiga ulanish uchun QR-kodlar joylashtirilgan. Masofalarni yaqin qilgan ushbu tizim nafaqat fuqarolar uchun tezkor muloqot maydonini yaratdi, balki hududda osoyishtalikni ta'minlash va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday ko'ngilsizliklarni barvaqt jilovlashning zamonaviy mexanizmiga aylandi.


Shuningdek, 3-sonli IIB binosiga tutash hududda zamonaviy bolalar maydonchasi hamda «Malika» nomli mo'jazgina bog' barpo etildi. Bu esa mahallalarda «Obod va xavfsiz mahalla» tamoyili shunchaki shior emas, balki amaliy natija ekanligini tasdiqlaydi. Bunday bunyodkorlik ishlari nafaqat hudud qiyofasini o'zgartirmoqda, balki poytaxtimiz aholisi va mehmonlari uchun xotirjam muhit yaratish yo'lidagi izchil islohotlarning uzviy davomi bo'lib xizmat qilmoqda.

XULOSA

Shuni alohida ta'kidlash joizki, tumanda shakllanayotgan ushbu ijobiy tajribani nafaqat Toshkent shahri, balki butun respublikamiz bo'ylab keng tatbiq etish sohadagi islohotlar samaradorligini yangi bosqichga olib chiqadi. Toki har bir fuqaro o'z uyida, mahallasida va ko'chasida o'zini to'liq himoyalangan his etar ekan, yurtimizdagi tinchlik-osoyishtalik bardavom, xalqimizning ertangi kunga bo'lgan ishonchi esa mustahkam bo'laveradi.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

Ikrom HASANOV olgan suratlar.
Toshkent shahri.



Бизнинг суҳбат

«ВАТАНГА САДОҚАТ –

ҚАҲРАМОНЛИҚДИР»

ЎЗБЕКИСТОН ҚАҲРАМОНИ, ХАЛҚ ДЕПУТАТЛАРИ
ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТ КЕНГАШИ ДЕПУТАТИ
МУҲАББАТ ШАРАПОВА БИЛАН СУҲБАТ

– **Муҳаббат опа, келинг, суҳбатимизни болаликнинг беғубор хотираларидан бошласак. Сизнинг шахс ва малакали мутахассис сифатида шаклланишингизда оилангизнинг ўрни қандай бўлган?**

– Болалик ва ўсмирлик йилларим асосан Қарши шаҳрида кечган. Отам – мархум, подполковник Араб Шарапов ички ишлар органларида чорак асрдан ортик фидокорона хизмат қилган. Яққабоб, Шаҳрисабз, Чироқчи, Косон тумани ва Қарши шаҳар ички ишлар бўлимларида бошлиқ лавозимида ишлаган.

Отамнинг хизмат фаолияти сабабли оиламиз билан вилоятнинг турли туманларида яшаганмиз: мен Шаҳрисабзда, укам Чироқчида туғилган.

“ *Оилада саккиз фарзанд эдик. Отам кўпинча хизматда бўлгани боис, биз – фарзандлар тарбияси билан кўпроқ волидам – раҳматли Ҳаловат ая шуғулланган. Гарчи рўзғорда баъзан этишмовчиликлар бўлса-да, ота-онамиз китоб-дафтаримиз узилишига ҳеч қачон йўл қўймасди. Уйимизда жуда қатъий тартиб бор эди – дарс тайёрлаш ва китоб ўқиш энг муҳим вазифа ҳисобланарди.*

Кечагидек ёдимда: отам тахтадан стол-стул ясаб берганди. Стол устида глобус, деворда дунё харитаси турарди. Спорт билан ҳам шуғулланардик. Мен волейболга қизиқардим.

Қарши шаҳридаги 5-мактабни олтин медаль билан тамомлаганман. Айнан интизом кейинги муваффақиятларимга замин бўлди.

– **Отангиздан олган энг муҳим ҳаётий сабоғингиз...**

– Юқорида айтганимдек, оиламизда темир интизом ва масъулият тушунчалари ҳамиша устувор бўлган. Отам ички ишлар органи ходими бўлгани боис, қонунга ҳурмат, қатъий тартиб ва адолат туйғуси болалигимданоқ онгимга чуқур муҳрланган. Бу кадрятлар кейинчалик педагогик фаолиятимда, хусусан, ўқувчилар билан ишлаш жараёнида менга жуда қўл келди.

Отамдан олган энг муҳим сабоғим – адолат ва ҳалоллик. У киши доим: «Қиладиган ҳар бир ишинг, аввало, халқ манфаатига хизмат қилсин», деб уқтирардилар. Шу боис

таълим жараёнида ўқувчиларга нафақат математик формулаларни, балки ҳаётнинг энг муҳим қоидаларини – қонун устуворлиги ва ҳар бир вазифага масъулият билан ёндашишни ўргатишга интилдим. Зеро, таълим ва тарбия бир-биридан ажралмас, яхлит жараёндир.

– **Авлодлар орасида бобо касбни давом эттираётган ёки унга қизиқувчилар борми?**

– Албатта, оилавий анъаналаримиз давом этмоқда. Укам Баҳодирнинг ўғли – Умиджон Шарапов ички ишлар органларида хизмат қилиб, капитан унвонида пенсияга чиқди. Бугунги кунда унинг фарзандлари бобо ва ота касбига катта ҳавас билан вояга етмоқдалар.

– **Талабалик даврингиз ва**

ўқитувчилик фаолиятингиз ҳақида хотираларингиз...

– 1971 йилда Самарқанд давлат университетининг механика-математика факультетини тамомлаб, ўзим таҳсил олган Қарши шаҳридаги 5-мактабда иш бошладим. Математиканинг сеҳрли олами мени ҳамиша ўзига тортган. Илк кунлардан дарс беришда янги, ноанъанавий усулларни қўллашга ҳаракат қилдим. Касбимга чин юракдан меҳр қўйиб, ўқитувчиликка ҳаётимнинг мазмуни деб қарадим ва йигирма тўққиз йил айнан шу мактабда фаолият юритдим.

Изланишларим бесамар кетмади – мен ишлаган мактаб математика фани бўйича нафақат вилоятда, балки республикада ҳам олдинги сафларга чиқди. Ҳатто узоқ туманлардан математикани чуқур ўрганиш истагида бўлган ўқувчи ёшлар келиб сабоқ олишарди.

Кейинги йилларда Қарши шаҳридаги Нодирабегим номли мактаб-интернатда ўқувчиларга дарс бердим.

Муҳаббат Шарапова – 1949 йил 24 январда Шаҳрисабз шаҳрида туғилган.

1996 йилда «Меҳнат шухрати» ордени, 2007 йилда «Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган халқ таълими ходими» фахрий унвони, 2016 йилда «Ўзбекистон Қаҳрамони» унвони билан тақдирланган.

– **Нега айнан ўқитувчилик касбини танлагансиз? Математиканинг мураккаб оламига кириб келишингизга нима туртки бўлган?**

– Математика фанининг мураккаб ва сеҳрли оламига кириб келишимга ўқувчилик давримдаги муваффақиятларим асос бўлган. Ўша кезлари фан олимпиадаларида мунтазам қатнашиб, ғолиблар сафидан жой олганим унга бўлган меҳримни янада оширган.

Математика инсонни нафақат ҳисоб-китобга, балки мантиқий ва аниқ фикрлашга, ҳаётдаги мураккаб вазиятларга оқилона ёндашишга ўргатади.

Педагогикани танлаганимга келсак, мен учун устозлик – шунчаки касб эмас, балки келажакни бунёд этиш демакдир. Ёшларга билим бериш, уларни тўғри йўлга бошлаш ва жамият учун муносиб инсонлар қилиб тарбиялашни ҳаётимнинг олий мақсади деб билдим. Шукрки, меҳнат фаолиятим давомида минглаб шогирдлар чиқардим ва уларнинг тақдирида ижобий из қолдиришга эришдим. Бу мен учун энг катта мукофот.

– **Сиз вилоятда биринчи бўлиб математика фани бўйича услубий қўлланмалар яратгансиз. Бу борадаги изланишларингиз ва шогирдларингизнинг натижалари ҳақида тўхталсангиз.**

– Ҳа, математикани ўргатишнинг осон ва қизиқарли йўллари излаб, ўнлаб қўлланмалар ёздим. 1995–1996 йилларда «Математика бўйича тест саволларининг ечимлари», «5-синф учун математика дарсига илова», «7-синф учун геометриядан ноанъанавий дарслар», «Математика чуқур ўргатиладиган синфларда 9- ва 11-синф битирувчилари учун қўшимча топшириқ материаллари» каби ўнлаб қўлланма ва рисоаларим китоб ҳолида чоп этилди.

– **Бугунги ёш педагогларга қандай маслаҳатлар берган бўлардингиз?**

– Албатта, ҳар бир заҳматкаш ўқитувчи каби мен ҳам турли синов ва машаққатларни бошдан кечирдим. Аммо бир ҳақиқатни англадим: сабр, меҳнат ва касбга бўлган муҳаббат билан ҳар қандай тўсиқни енгиб ўтиш мумкин.

“ *Меҳнатларимнинг ширин меваси – бу шогирдларимнинг ютуқларидир. Шу кунгача таълим берган ўқувчиларим 22 марта республика фан олимпиадаларида, 9 марта халқаро танловларда ғолиб бўлишди. Дунё миқёсидаги олимпиадада эса 2 марта кумуш медаллар қўлга киритилди.*

Шогирдларимдан 7 нафари профессор, 9 нафари фан доктори, юздан ортиғи эса фан номзоди илмий унвонларига эга бўлиб, улар ҳозир республикамизнинг турли олий ўқув юртларида фаолият кўрсатмоқда. Ўзим ҳам 2022 йилдан буён Қарши давлат университетида ишлаб келялман.

Мен учун дарс жараёнида фақат билим бериш етарли эмас эди. Ҳар бир ўқувчининг қалбида масъулият ва Ватанга муҳаббат руҳини уйғотишга ҳаракат қилдим. Ёш ҳамкасбларимга ҳам таълим ва тарбияда асло бўшлиқ қолдирмасликни, ҳар бир болага ўз фарзандидек меҳр беришни тавсия қиламан.

– **2016 йилда сизга мамлакатимизнинг олий даражали мукофоти – «Ўзбекистон Қаҳрамони» унвони берилди. Бу юксак эътироф сизнинг қарашларингиз ва ҳаётингизда нималарни ўзгартирди?**

– Биласизми, бу мукофотни асло шахсий ютуғим деб ҳисобламайман. Мен учун бу – энг аввало, давлатимизнинг миллат келажagini шакллантираётган заҳматкаш ҳамкасбларимга, бутун таълим соҳасига кўрсатган беқиёс эътироми рамзи. «Олтин юлдуз» медали – фақат имтиёз эмас, балки зиммамга юкланган муқаддас ва залворли масъулиятдир.

Ушбу юксак ишонч менга яна бир ҳақиқатни янада англади: ҳақиқий устознинг қаҳрамонлиги унинг шогирд-

лари эришган ютуқларда, уларнинг Ватанга бўлган садоқатида намоён бўлади.

Ватанга садоқат ва ватанпарварлик туйғуси шунчаки баландпарвоз сўзларда эмас, балки инсоннинг ўз касбига бўлган ҳалол ёндашувида, юрт равнақи учун фидойилигида намоён бўлади. Уягона Ватан, ягона халқ бўлиб,

“ *Меҳнатларимнинг ширин меваси – бу шогирдларимнинг ютуқларидир. Шу кунгача таълим берган ўқувчиларим 22 марта республика фан олимпиадаларида, 9 марта халқаро танловларда ғолиб бўлишди. Дунё миқёсидаги олимпиадада эса 2 марта кумуш медаллар қўлга киритилди.*

янги ҳаёт ва келажакни бунёд этишда, синовли паллардаги бирдамликда кўринади.

Ҳар бир фуқаронинг ўз вазифасини сидқидилдан бажариши ҳам юрт равнақиға қўшилган энг катта ҳисса ва чинакам қаҳрамонликдир.

– **Эл осойишталиги йўлида хизмат қилаётган ички ишлар органлари ходимларига қандай тилаклар билдирган бўлардингиз?**

– Ички ишлар органлари ходимлари учун энг олий мезон – Ватан ва халқ манфаати бўлмоғи лозим. Агар ҳар бир ходим ўз хизмат вазифасини бажаришда қонун устуворлигини таъминлаб, Ватан ва халқ манфаати йўлида соф виждон ва садоқат билан хизмат қилса, албатта, бунинг тотли мевасини кўради.

Фурсатдан фойдаланиб, барча осойишталик посбонларига масъулиятли фаолиятларида зафарлар, оилавий хотиржамлик тилайман. Ҳалол меҳнат ва адолат йўлидаги қатъият Сизларни ҳамиша юксак марраларга етакласин!

Ўз мухбиримиз
Содиқ РАҲИМОВ
суҳбатлашди.



Tanganing ikki tomoni

YUKSAK TEXNOLOGIYALAR VA
SUN'IY INTELEKT:

zamon talabimi yoki xavf?

Bugungi kunda ular inson hayotining deyarli barcha jabhalariga shiddat bilan kirib kelmoqda. Ilgari faqat fantastik filmlarda uchraydigan «aqli mashinalar» endi real hayotda bizga ish faoliyatida, ta'lim olishda va qaror qabul qilishda yordam bermoqda. Xo'sh, bu insoniyat uchun katta imkoniyatmi yoki xavfmi? Sun'iy intellekt (SI) inson hayotini yengillashyaptimi yoki yangi muammolarni keltirib chiqaryaptimi?

Avvalo, zamonaviy texnologiyalarning ijobiy tomonlariga to'xtalib o'tsak. Bugun u tibbiyot sohasida kasalliklarni erta aniqlashda shifokorlarga yordam bermoqda. Masalan, rentgen yoki MRT natijalarini tahlil qilishda SI tizimlari ba'zi holatlarda inson ko'zi ilg'amagan narsalarni «payqab», aniqroq xulosa chiqara oladi. Bu esa kasalliklarni o'z vaqtida aniqlash va davolash imkoniyatini oshiradi.

Ta'lim sohasida esa onlayn platformalar, virtual darslar va avtomatik tarjima tizimlari o'qib-o'rganishni ancha osonlashtirdi. Bolalar rasm chizish, video yaratish, dasturlash kabi ko'nikmalarni erta yoshdan o'rganish imkoniga ega bo'lmoqda. Internet orqali turli madaniyat, til va g'oyalar bilan tanishgani bois ularning dunyoqarashi kengayib bermoqda. Bu esa kelajak kasblariga tayyorgarlikni kuchaytiradi.

Xizmat ko'rsatish sohasida texnologiyalar ko'plab jarayonlarni tezlashtirdi. Masalan, bank tizimida firibgarlikni aniqlashda sun'iy intellektdan foydalaniladi. Agar plastik karta bilan bog'liq shubhali operatsiya bo'lsa, tizim uni avtomatik ravishda bloklashi mumkin. Avtomatlashtirilgan tizimlar hisob-kitob, ma'lumotlarni qayta ishlash va hatto mijozlarga xizmat ko'rsatishda ham qo'l kelmoqda. Bu korxonalar va idoralarga vaqt va mablag'ni tejash imkonini beradi.

Shunga qaramay, sun'iy intellekt bilan bog'liq ayrim xavf va xavotirlar ham mavjud. Masalan, avtomatlashuv sababli ba'zi kasblar yo'qolib ketishi mumkin. Ilgari insonlar bajaragan ko'pgina ishlarni endi dasturlar

va robotlar bajarmoqda. Bu esa ish o'rinlari qisqarishiga olib keladi.

Yana bir muhim masala — ma'lumotlar xavfsizligi. Sun'iy intellekt katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlaydi, bu esa ba'zan shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligiga putur yetkazishi mumkin. Masalan, ijtimoiy tarmoqlar insonning qiziqishlari, xatti-harakatlari va hatto fikrlash uslubini tahlil qiladi. Agar mazkur ma'lumotlar qabih niyatli kishilar qo'lga tushsa, bu bir qator salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Shuningdek, texnologiyalarga haddan ziyod suyanib qolish insonning mustaqil fikrlash qobiliyatiga ham ta'sir qilishi mumkin. Agar barcha qarorlarni qabul qilish mashinalarga topshirilsa, odamning tahlil qilish, ijodiy fikrlash va qaror qabul qilish ko'nikmalari zaiflashishi ehtimoldan xoli emas.

Bolalar ham ulardan ortiqcha va nazoratsiz foydalanmasligiga e'tibor qaratish juda muhim. Aks holda ularda ko'z toliqishi, jismoniy faollikning susayishi va uyqu buzilishi kabi muammolar paydo bo'ladi. Real muloqot kamayadi va virtual muhitga ko'proq bog'lanib qolish holatlari kuzatiladi. Bundan tashqari, ular noto'g'ri yoki mos bo'lmagan kontentga duch kelishi va bola yoshiga mos bo'lmagan ma'lumotlarni ko'rishini mumkin.

Shu bilan birga, sun'iy intellekt yordamida noto'g'ri axborot va ma'lumotlar ham tarqatiladi. Soxta video yoki ovozlarni yaratilib, odamlarni aldash va chalg'itish holatlari kuzatilmoqda. Bu esa jamiyatda ishonch hissi yo'qolishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, texnologiyalar va sun'iy intellekt — bu zamonaviy taraqqiyotning ajralmas qismi. Ular inson hayotini yengillashyaptiradi, imkoniyatlarni kengaytiradi, lekin shu bilan birga mas'uliyat va ehtiyotkorlikni ham talab qiladi. Eng muhimi, sun'iy intellekt inson o'rnini bosishi emas, balki unga xizmat qilishi kerak. Shuning uchun eng to'g'ri yo'l — undan ongli ravishda, me'yorida, inson manfaatlarini yo'lida foydalanishdir.

Gulchehra AZIMOVA
tayyorladi.

Mahalla tinch — yurt tinch

«GULISTONOBOD» —
OBOD GO'SHA

G'ijduvon tumanidagi «Gulistonobod» mahallasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish bo'yicha sa'y-harakatlar samarasi o'laroq jinoyatchilik yildan-yilga kamayib bormoqda. O'tgan yili va joriy yilning o'tgan davrida esa birorta ham jinoyat sodir etilmadi, huquqbuzarlik holatlari esa keskin kamaydi.

— Bu bilan xotirjam bo'la olmaymiz, — deydi profilaktika inspektori, kapitan Samoyiddin Toshpo'latov. — Ayniqsa, yoshlar tarbiyasiga hamda oilaga oid masalalar o'z vaqtida ko'rib chiqilmasa, vaqtini boy bergan bo'lamiz. Mahalla yetiligi a'zolari birgalikda deyarli har kuni hududni aylanib, fuqarolar bilan suhbatlashamiz. Ko'cha vakillari bizni har kungi vaziyatdan xabardor qilib turishadi.

Mahalla raisi Ilhom Qosimovning aytishicha, Boyxotin qishlog'ida yashovchi bir fuqaro ro'zg'or tashvishi-yu tirikchiligini xotini gardaniga yuklab qo'ygan. Bu ham yetmagandek, spirtli ichimlik ichib, uyida janjal ko'tararkan. Profilaktika inspektorining sa'y-harakatlari bilan u fevral oyida viloyat narkologiya dispanseriga yotqizildi. Ayni

berish choralarini ko'radi. Bunda unga mahalladagi tadbirkorlar, fermer xo'jaliklari rahbarlari yaqindan yordam berishadi. Qolaversa, ilgari ichki ishlar organlari tizimida, aynan profilaktika inspektori lavozimida faoliyat ko'rsatgan mahalla raisi bilan bamaslahat ish tutadi.

Notinch, janjalkash oilalarni murosai madoriga keltirish, turmush doirasida muntazam ravishda huquqbuzarlik sodir qiluvchi shaxslarni tartibga chaqirish yo'lida mahalla yetiligi jonbozlik ko'rsatyapti. O'tgan oylar davomida 8 ta oila yarashtirildi va 6 ta oilaviy ajrimning oldi olindi. Tazyiq va zo'ravonlikdan aziyat chekkan 7 nafar fuqaroga himoya orderi berildi.

Ayni paytda mahallada bunyodkorlik ishlari jadallik bilan olib borilmoqda. Jumladan, 28-umum-



paytda ichkilikbozlikni tashlagan. Hozirda payvandchilik bilan shug'ullanayotgan ekan.

Rabotipoyonlik H.M. ham spirtli ichimlikka ruju qo'ygan edi. Kapitan S. Toshpo'latov olib borgan profilaktik ishlar natijasida u tuzalish yo'lga o'tib, novvoychilik qilyapti. Oila a'zolari va qo'ni-qo'shnilari bilan tinch-totuv yashab kelyapti. Ro'zg'origa ham baraka kirgan.

Samoyiddin Toshpo'latov ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni profilaktik ishlarni olib boradi. Har oyda kamida ikki marotaba ular bilan suhbat o'tkazadi. Shuningdek, oilalarda kelishmovchiliklarning oldini olish, yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan xonadonlarga imkon qadar yordam

ta'lim maktabi uchun uch qavatli 590 o'rinli yangi bino qad rostlayapti. 90 o'rinli maktabgacha ta'lim tashkiloti, oilaviy poliklinika uchun qo'shimcha 24 o'rinli bino qurilmoqda. Ichki yo'llar asfaltlayapti, 546 ta yangi simyog'och va 3 ta transformatorlar o'rnatiladi.

Bugungi kunda «Gulistonobod» mahallasida bo'lgan kishi ushbu hududdagi osoyishtalik va xotirjamlikni, aholi turmush darajasining oshayotganligini, qolaversa, bunyodkorlig-u obodonchiliklarni ko'rib, dili yayraydi. Bunda profilaktika inspektori, kapitan Samoyiddin Toshpo'latovning ham munosib hissasi bor.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.

Ma'naviyat va ma'rifat darsi

QONUNLARGA HURMAT – HUQUQIY MADANIYAT ASOSI

So'nggi yillarda O'zbekistonda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligini ta'minlash, sud-huquq tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.



Boboqul TOSHEV,
yuridik fanlar doktori,
professor.



Davlat organlari va mansabdor shaxslar qonun asosida ish yuritsa, aholining huquqiy faolligi oshadi.

Abu Rayhon Beruniy qonun va adolat davlat mustahkamligining asosi ekanini ta'kidlagan. U jamiyatdagi barqarorlik qonunlarga amal qilish bilan bog'liq deb hisoblagan.

Ma'naviyat va ma'rifat darsini videomaterial tarzida ko'rish uchun QR-koddan foydalaning.

Xususan, aholining huquqiy bilimlarini oshirishga qaratilgan dasturlar amalga oshirilmoqda, elektron davlat xizmatlari kengaytirilmoqda, korrupsiyaga qarshi kurashish choralari kuchaytirilmoqda. Bu islohotlar qonun ustuvorligini ta'minlash va jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Jamiyat taraqqiyoti, inson huquq va erkinliklarining ta'minlanishi, davlat boshqaruvining samarali faoliyat yuritishi bevosita qonunlarga bog'liq. Puxta qonunlar qabul qilingan davlatda adolat, tenglik va huquqiy tartib qaror topadi. Qonun muayyan shaxs uchun emas, balki keng doiradagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi.

Qonunni ma'rifatarparvar olimlar va mutafakkirlar jamiyatda adolat, tartib va inson erkinligini ta'minlovchi asosiy vosita sifatida baholaganlar. Jumladan, Abu Nasr Forobiy qonunni fozil odamlar jamiyatini barpo etishning asosiy sharti deb hisoblagan. Uning fikricha, adolatli qonunlar insonlarni ezgulikka yetaklaydi va jamiyat tinchligini ta'minlaydi.

Abu Rayhon Beruniy qonun va adolat davlat mustahkamligining asosi ekanini ta'kidlagan. U jamiyatdagi barqarorlik qonunlarga amal qilish bilan bog'liq deb hisoblagan. Alisher Navoiy adolat va qonun ustuvorligini davlat boshqaruvining eng muhim tamoyili sifatida ko'rsatgan. Uning asarlarida podshohning asosiy vazifasi xalqqa adolat bilan munosabatda bo'lish ekanini ta'kidlanadi.

Fransuz faylasufi Sharl Lui Monteskyo qonunni inson erkinligining kafolati deb ta'riflagan. Uningcha, qonunlar adolatga asoslangandagina jamiyat taraqqiy etadi. Jan-Jak Russo qonun xalq irodasining ifodasi bo'lishi kerakligini aytgan.

Qonun oldida barcha teng bo'ladi. U adolatsizlik va zo'ravonlikning oldini olishga xizmat qiladi. Qonun jinoiy qilmish va boshqa huquqbuzarliklar uchun javobgarlik belgilaydi. Bu esa odamlarni qonunga rioya qilishga undaydi. Huquqiy madaniyatning yuksalishi aynan qonun ustuvorligiga tayanaadi. Chunki fuqarolar qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalanmasa, huquqiy ong va huquqiy madaniyat shakllanmaydi.

Huquqiy madaniyat – insonlarning huquqiy bilim darajasi, huquqiy ongi, qonunlarga itoatkorligi va huquqiy faolligi yig'indisidir. Yuksak huquqiy madaniyatga ega jamiyatda fuqarolar qonunlarga ixtiyoriy ravishda amal qiladi, huquqbuzarliklar kamayadi va ijtimoiy barqarorlik ta'minlanadi.

Huquqiy madaniyat shaxsning huquqiy bilimlari, qonunlarga munosabati, huquq va majburiyatlarni anglashi hamda ularga amal qilish darajasini ifodalasa, qonun ustuvorligi esa davlat va jamiyat hayotida barcha uchun qonunning bir xil amal qilishini anglatadi. Ushbu ikki tushuncha o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, biri ikkinchisining rivojlantirishiga xizmat qiladi.

Qonun ustuvorligi – davlat organlari, mansabdor shaxslar va

fuqarolarning qonunlarga qat'iy rioya qilishi demakdir. Bu tamoyil demokratik huquqiy davlatning asosiy belgilaridan biri hisoblanaadi. Agar jamiyatda qonun ustuvor bo'lsa, har bir inson o'z huquqlarini yaxshi anglaydi va boshqalarning huquqlariga ham hurmat bilan munosabatda bo'ladi, huquqiy madaniyat bilan yashashga harakat qiladi.

Haqiqatan ham, qonun ustuvorligi ta'minlangan davlatda demokratik qadriyatlar qaror topadi va mustahkam boshqaruv amalga bo'ladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev «Qonun ustuvorligi – bu davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari chiqarayotgan hujjatlar, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari faqat va faqat Konstitutsiya hamda qonunlarga muvofiq bo'lishi shart, deganidir», – deb ta'kidlaganlar.

Jamiyatda qonun normalarining ustuvorligini ta'minlashning eng asosiy shartlaridan biri bu – mansabdor shaxslar va davlat xizmatchilarining huquqiy bilimli bo'lishidir. Ularning huquqiy bilim darajasi bir tomondan qabul qilinadigan qonun hujjatlarining sifatiga ta'sir ko'rsatsa, ikkinchi tomondan qonun hujjatlarining o'z vaqtida va ishonchli ijrosini ta'minlashga olib keladi.

Birinchidan, qonun barcha uchun teng qo'llanilganda, fuqarolarda adolatga ishonch paydo bo'ladi. Bu esa qonunlarga hurmatni kuchaytiradi.

Ikkinchidan, davlat organlari va mansabdor shaxslar qonun asosida

ish yuritsa, aholining huquqiy faolligi oshadi. Aksincha, qonunlarga amal qilinmasa yoki ular past darajada qo'llanilsa, huquqiy nigilizm, ya'ni savodsizlik kelib chiqadi.

Uchinchidan, qonun ustuvorligi ta'lim va huquqiy tarbiya orqali huquqiy madaniyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, qonun ustuvorligi insonlarning huquq va majburiyatlarini anglashga yordam beradi. Natijada fuqarolar nafaqat o'z huquqlarini himoya qiladi, balki jamiyat oldidagi mas'uliyatini ham his etadi.

Xulosa qilib aytganda, qonun faqat jazo belgilash vositasi emas, balki jamiyat ma'naviyati va huquqiy madaniyatini yuksaltiruvchi vositadir. Qonun jamiyatda tartib, adolat va barqarorlikni ta'minlash uchun kerak. Qonun har bir davlat va jamiyatning asosiy tayanchi hisoblanadi.

Zero, insonning baxtli bo'lishi, o'zini erkin va ozod his qilishi, hayotidan rozi bo'lishi, o'zi va farzandlarining xavfsiz jamiyatda yashash kafolati aynan qonun ustuvor bo'lgan va huquqiy madaniyat yuksak bo'lgan joydagina ta'minlanadi.



Qoraqalpoq tilidagi matn.



Rus tilidagi matn.

Uchinchi Renessans bunyodkorlari

BILIM VA TAFAKKUR TANTANASI

«Buyuk Sharq Renessansi» xalqaro olimpiadasi — yosh avlodning bilim, tafakkur va intellektual salohiyatini namoyon etishga qaratilgan nufuzli tanlovdir. Ushbu olimpiadadan ko'zlangan maqsad tarix va gumanitar fanlar bo'yicha chuqur bilimga ega iqtidorli o'quvchilarni saralash, ularning dunyoqarashini kengaytirish hamda ilmiy izlanishlarga bo'lgan qiziqishini oshirishdan iborat.

Joriy yilda mazkur xalqaro olimpiadaning saralash bosqichlarida yuqori natija ko'rsatgan Ichki ishlar vazirligi ixtisoslashtirilgan maktab-internatining 9-sinf o'quvchisi Sohijjon Qobuljonov final bosqichida ham 1-o'rinni egallab, oltin medal bilan taqdirlandi. Bu mu-

vaffaqiyat nafaqat uning shaxsiy yutuqi, balki ustozlari mehnatining ham mevasi bo'ldi.

— Uni ilk bor 5-sinfdayoq iqtidorli o'quvchi sifatida payqagandim, — deydi tarix fani o'qituvchisi Javlon Muhammadiyev. — O'sha paytda bilimga chanqoqligi va mustaqil fikrlashi bilan e'tiborimni tortgandi.

Sohijjonning tarix fanini mukammal o'zlashtirishida maktab-internatda yo'lga qo'yilgan individual yondashuv tizimi, muntazam o'tkaziladigan fan olimpiadalari hamda kutubxona imkoniyatlaridan samarali foydalanishi muhim o'rin tutgan. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash jarayonida qo'shimcha topshiriqlar va chuqurlashtirilgan bilim berish usullari ham samarali natija bergan.

— Yutuqlarim ortida, albatta, ustozlarimning mehnati va ota-onamning qo'llab-quvvatlashi turibdi, — deydi lavhamiz qahramoni. — Tarix fanini o'rganish men uchun dunyoqarashimni kengaytirish vositasiga aylangan. Har bir yangi mavzu menda yanada ko'proq izlanishga qiziqish uyg'otadi. Kelajakda Nukusdagi «Temurbeklar maktabi» harbiy akademik litseyida tahsil olib, Ichki ishlar vazirligi tizimida Vatanga xizmat qilishni maqsad qilganman. Bu yo'lda yanada ko'proq o'qishim, mehnat qilishim va o'z ustimda ishlashim zarurligini yaxshi anglayman...

Adolat FAYZIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.



ILG'ORLAR SAFIDA

Shohrux bolaligidayoq bilimga chanqoqligi, qat'iyati va ayniqsa, adolatparvarlik fazilatlarini bilan ustozlari e'tiborini qozondi. Qarshi shahridagi 34-maktabning 9-sinfini tamomlagach, bolalikdagi orzusini amalga oshirish maqsadida IIV Qashqadaryo akademik litseyiga o'qishga kirdi.

Otasi Kamol aka va onasi Gulruh opaning duosini olib, barcha sinovlardan muvaffaqiyatli o'tib, maqsadlariga asta-sekin erisha boshladi.

O'tgan davr mobaynida Shohrux litseyda barcha fanlarni a'lo baholarga o'zlashtirish bilan birga, turli bilimlar bellashuvlarida faol ishtirok etib kelmoqda. Xususan, o'tgan yili huquqshunoslik fani bo'yicha o'tkazilgan viloyat musobaqasida faxrli 1-o'rinni qo'lga kiritdi. U nafaqat bilimda, balki sportda ham

faol — suzish turi bilan muntazam shug'ullanib keladi.

Joriy yilning 7–8 aprel kunlari Toshkent shahrida Ichki ishlar vazirligi akademik litseylari o'quvchilari o'rtasida huquqshunoslik fani bo'yicha respublika olimpiadasi bo'lib o'tdi. Qashqadaryo akademik litseyining 2-bosqich o'quvchisi Shohrux Yunusov mazkur olimpiadada yuksak bilim va tayyorgarligini namoyish etib, g'olib bo'ldi.

— Ta'lim muassasamizda yoshlar zamonaviy bilimlarni egallashi va intellektual salohiyatini yuzaga chiqarishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan, — deydi litseyning huquq fani o'qituvchisi Elbek Jabborov. — Ko'rsatilayotgan bunday e'tibor va imkoniyatlarga javoban, o'quvchilarimiz fan olimpiadalarida, sport musobaqalarida yuksak zafarlarni qo'lga kiritmoqdalar. Shohrux Yunusov ham ana shunday ilg'or yoshlarimiz safida. U erishgan yutuqlari bilan jamoamiz faxriga aylandi.

Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.

JASURBEKNING TO'RT MUVAFFAQIYATI

Ilm cheksiz imkoniyatlar olami. Uning zamirida tinimsiz izlanish va yuksak marralar sari intilish mujassam. IIV Surxondaryo akademik litseyi o'quvchisi Jasur Alyorov maqsadlari sari sobitqadamlik bilan olg'a intilayotgan, salohiyatli yosh avlod vakillaridan biridir.

Ishchi oilasida voyaga yetgan Jasurbek kichikligidan bilimga chanqoqligi va namunali intizomi bilan tengqurlaridan ajralib turdi. Onasi uy bekasi bo'lishiga qaramay, farzandining ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratdi, darslarni a'lo darajada o'zlashtirishi uchun unga astoydil ko'maklashdi.

Bugun ana shu mehr va mehnat samarasi Jasurbekning yutuqlarida yaqqol namoyon bo'lmoqda. U nafaqat darslarda faol, balki tarix, ona tili va adabiyoti, matematika va ingliz tili to'garaklarida ham ilg'or o'quvchiga aylandi. Ushbu intilishlari natijasida Jasurbek

milliy va xalqaro CEFR sertifikatlarini qo'lga kiritdi: tarix fanidan A+, ingliz tilidan B2, ona tili va adabiyotidan B hamda matematika fanidan S+ darajali sertifikatlariga ega bo'ldi.

Albatta, bunday salmoqli yutuqlar zamirida ustozlarning zahmatli mehnati va beqiyos hissasi bor. Jasurbek ilm yo'lida unga to'g'ri yo'nalish bergan, bilim va tajribasini ayamay o'rgatib kelayotgan fidoyi ustozlari — Aziz Mamatxolov va Vazira Umarovanning xizmatlarini alohida e'tirof etadi.

Yosh qahramonimiz bo'sh vaqtlarida sport bilan shug'ullanadi. Ayniqsa, milliy ku-

rashga bo'lgan qiziqishi uni jismonan chiniqtirib, irodasini mustahkamlayapti. Hozirda litsey jamoasi tarkibida turli musobaqalarda faol ishtirok etib kelmoqda.

— Har qanday muvaffaqiyat ortida mashaqqatli mehnat yotadi, — deydi Jasurbek Alyorov. — Maktab davrimdayoq fan olimpiadalarida faol qatnashganman. Hozirgi asosiy maqsadim — nufuzli oliy ta'lim muassasalaridan biriga o'qishga kirish. Eng muhimi, yurtimga xizmat qiladigan, ota-onamning ishonchini oqlaydigan inson bo'lishni istayman.

Jasurbek kabi bilimga chanqoq va o'z maqsadi sari sobitqadamlik bilan ilg'orlayotgan yoshlar — mamlakatimiz kelajagining ishonchli poydevoridir.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.


Surxondaryo viloyati.



Qilni qirq yorib

QALDIRG'OCH ANOT YOZDI

Mashhura Saidqulova o'tgan yili IIV Akademiyasini tugatib, Shirin shahar IIB EKB eksperti etib tayinlandi.



Lavhamiz qahramoni yosh, qat'iyatli, g'ayratli bo'lsa-da, hali tajribasiz edi. Xizmat boshlaganining uchinchi kuniyoq unga xatshunoslik ekspertizasi topshirildi. Endi bu jinoyat ishining mohiyatiga qisqacha to'xtalsak.

Shirin shahar suv ta'minoti korxonasi bilan tadbirkorlik subyektlaridan biri o'rtasida shartnoma tuzilgan bo'lib, bir necha million so'mlik nizoli vaziyat vujudga kelgandi. Korxonahabari ushbu shartnomadan xabari yo'qligini ma'lum qilgandi. Shunda hujjat soxtaligiga oid masala paydo bo'lgandi.

Yosh xodimaga rahbar imzosining eksperimental, personallatirish markazida ro'yxatga olingan asl nusxalari topshirildi. U kun davomida zarrabin, «Regula» optik asbobi orqali imzolarni obdan solishtirdi. Imzolar bir-biriga juda o'xshash, lekin bir xil emas edi. Ekspertdan ularning farqli jihatlari nimada ekanligini aniq isbotlab berish talab etilardi.

U o'zini o'zi ruhlantirib, ishga qayta kirishdi. Shunda imzolar turli bosim ostida yozilganini, ulardagi unli harflardagi chiziqlar umuman mos kelmasligini sezib qoldi. Aniqlaganlarini xulosaga kiritib, skrinshotlarni ilova qilganidan keyin yelkasidan tog' ag'darilgandek bo'ldi.

Birinchibor o'g'irlik jinoyati sodir etilgan joyga chiqqanida ham xuddi shunga o'xshash vaziyat yuzaga keladi. «Do'stlik» mahallasidagi uylarning biridan bir necha tilla taqinchoq, 10 million so'm pul o'g'irlab ketilgandi. Mashhura eshik tutqichidan barmoq izlarini ola boshladi. Lekin pergament qog'ozda barmoq izlari ochilmadi.

Oq kukunni qorasiga almashtirdi. Superkley bug'ida izlarni qotirib oldi. Shundan keyin izlardan nusxa olgandi, juda aniq bo'lib chiqdi. Yosh leytenant shundan so'ng oila a'zolari, qo'shnilar, shu uyga kelib-ketib turgan odamlarning barmoq izlarini ham oldi.

Ikki soat davomida izlarni taqqosladi. Elektr chiroqni yoqqach, taqinchoq va pullar saqlangan g'aladondan ham ikki kishining barmoq izlarini topdi. Birinchisi bekaniki, ikkinchisi esa uning Boyovut tumani «Shirin» mahallasida yashovchi talaba jiyaniniki edi. Talaba qiz pul kerak bo'lgani bois o'g'irlik qilganini tan oldi. Shu tariqa jinoyat «is-siq izida» ochildi. Endigina faoliyat boshlagan qahramonimizning esa o'g'irlikni fosh etishga hissasi qo'shilganidan quvonchi ichiga sig'masdi.

Leytenant Mashhura Saidqulovaning hayotda orzulari ko'p. Eng katta niyati esa o'z kasbi orqali hurmat-e'tibor qozonish. Bunga faqat mehnat, tinimsiz izlanish, o'z ustida ishlash, ustozlar tajribasini o'rganish orqali erishish mumkinligini allaqachon tushunib yetdi.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.

Ijtimoiy profilaktika

OSOYISHTALIK MAHALLADAN BOSHLANADI

Jinoyatchilikka qarshi kurashishda samarali yondashuv – jinoyat sodir etilgandan keyin jazolash emas, balki uning barvaqt oldini olishga ustuvor ahamiyat berishni taqozo etadi. Buning uchun jinoyatga sabab bo'luvchi ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik omillarni bartaraf etish yuzasidan tizimli ishlar olib borilishi lozim.



Davlatimiz rahbarining 2026-yil 5-yanvardagi «Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo'nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori hamda Jizzax viloyati hokimining tegishli farmoyishi asosida o'tkazilayotgan «Ijtimoiy profilaktika haftaligi» doirasidagi tadbirlarda ana shu ilg'or yondashuv o'z aksini to'lato'kis topmoqda.

Joriy yilning mart–iyun oylari davomida o'tkazilishi rejalashtirilgan tadbirlar har oyda tuman va shaharlardagi bittadan mahallani qamrab olgan. Tabdirlarning samarali va natijador bo'lishiga tuman (shahar) hokimlari hamda ichki ishlar bo'limlari boshliqlari shaxsan mas'ul etib belgilangan.

Mart oyida viloyatning 12 ta mahallasida haftalik doirasidagi tadbirlar muvaffaqiyatli yakunlandi. Birgina G'allaorol tumanidagi «Sarbozor» MFY misolida aytadigan bo'lsak, asosiy e'tibor hududda profilaktika ishlarini kuchaytirish, yoshlar tarbiyasiga alohida yondashish va aholi o'rtasida huquqiy targ'ibotni kengaytirishga qaratildi.

Xususan, mahalla yettiligi tomonidan 16 ta yo'nalish bo'yicha o'rganish ishlari olib borildi. Birgina profilaktika inspektori tomonidan esa ijtimoiy profilaktika obyektlari bo'yicha aniqlangan muammolarni bartaraf etish yuzasidan mahalla yettiligiga 196 ta xulosa taqdim etildi. Shuningdek, mahalla faollari orasidan tajribali murabbiylar birlashtirilishi va hamkorlikdagi ishlar samarasi o'laroq, 55 nafar fuqaroning turmush tarzi va oilaviy sharoiti o'rganilishi natijasida 12 nafar shaxs sog'lom turmush tarziga qaytarildi.

Yoshlar yetakchisi bilan hamkorlikda tarbiyasi og'ir va xulq-atvorida salbiy o'zgarishlar kuzatilayotgan yoshlarning qiziqishlari o'rganildi. Natijada 34 nafar yigit-qiz fan, kasb-hunar va sport to'garaklariga yo'naltirildi. Bundan tashqari, aholi bandligini ta'minlash maqsadida hududda 3 marotaba mehnat yarmarkasi tashkil etildi.

Ayni paytda haftalik doirasidagi tadbirlar tumanning «G'o'bdin» mahallasida izchil davom ettirilmoqda. Ushbu jarayonda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish masalalariga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Shu bilan birga, aholi muammolarini tizimli aniqlash va ularni joyida hal etish choralari ko'rilmogda.

Begzod ASADOV,
Jizzax viloyati IIB HPB katta inspektori,
katta leytenant.

To'rt oyoqli ko'makchilar

«TARZAN», «MOLLI», «BLIS»...

Ulg'aygandagi orzu ba'zan bolalikdagi ishqibozlikdan boshlanadi. Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on tumanida tug'ilib, voyaga yetgan Jahongir Ro'zimurodovning kasb tanlashiga bolalikdagi oddiy qiziqishi sabab bo'lgan. O'smirligida «Tarzan» laqabli iti bo'lardi. Jonivorga turli buyruqlar berib, zehni va itoatkorligini sinovdan o'tkazardi. Bu oddiy mashg'ulotlar esa keyinchalik uning taqdir yo'lini belgilab berdi.

Vaqt o'tib, qiziqishi Jahongirni Kattaqo'rg'on tumanidagi veterinariya texnikumiga boshlab keldi. Ushbu dargohda kinologiya yo'nalishida tahsil olib, xizmat itlari bilan ishlashning sir-asrorlarini puxta o'zlashtirdi. Amaliyotni esa Navoiy viloyati IIB JXX JTSB Kinologiya bo'linmasida o'tadi. O'z qobiliyati va mas'uliyatligi bilan ustozlar e'tiborini qozondi.

Hozirda shu bo'linmada kichik inspektor-kinolog lavozimida xizmat qilmoqda. Faoliyatini endigina boshlagan kezlari unga «Molli» laqabli nemis ovcharkasi biriktirilgan edi. To'rt oyoqli ko'makchisiga belgilangan ko'nikmalarni o'rgatishdan oldin adabiyotlardan, ijtimoiy tarmoqlardan bu nasldagi itlarning imkoniyatlari, qanday parvarish qilinishi bo'yicha zarur ma'lumotlarni o'rgandi. Shuningdek, bo'linmadagi tajribali ustozlari ko'magida «Molli»ga jinoyatchini ushlab, giyohvandlik vositalarini qidirib topish ko'nikmalarini tez fursatda o'rgatdi.

Sohaga kirib kelganiga hali ko'p bo'lgani yo'q. Shunga qaramay tirishqoqligi, izlanuvchanligi va tashabbuskorligi bilan hamkasblari orasida munosib o'rnini topdi. Lavhamiz qahramoni o'z ustida muntazam ishlaydi. Shuningdek, bilimlarini yanada mustahkamlash maqsadida Samarqand davlat universitetida sirtidan ta'lim olmoqda.

Bugungi kunda Jahongir Ro'zimurodov o'zining to'rt oyoqli ko'makchisi «Blis» yoramida jinoyatlarni «issiq izida» fosh etishga hissa qo'shib

kelmoqda. Yaqinda «Samarqand» muntazam yo'l-patrul maskanida YPX inspektori odatdagi nazorat tekshiruv uchun yuk mashinasini to'xtatdi. Shunda negadir «Blis» bezovta bo'la boshladi. YPX inspektori haydovchi bilan suhbatlashayotganida, yo'lovchi besaranjom bo'layotgani Jahongirda shubha uyg'otdi. «Blis» ham vajohat bilan hura ketdi.

Kinologning shubhalari bekorga emaskan. Yo'lovchi tekshirib ko'rilganida, uning cho'ntagidan gugurt qutlarga solingan quritilgan nasha borligi aniqlandi. Lavhamiz qahramoni va uning ishonchli hamrohi «Blis»ning hushyorligi tufayli giyohvandlik vositasi savdosi bilan shug'ullanayotgan shaxsning qilmishlari fosh etildi.

Xizmat itlari ko'magida jinoyat ochilishi bir qarashda oddiy holga o'xshaydi. Ammo buning ortida kinologlarning qancha mehnati, sabr-toqati yotgan bo'ladi. Buni o'zim kinolog bo'lib tushundim. It – aqlli, sezgir jonivor. U egasining ishonchini his qiladi va bunga sadoqati bilan javob qaytaradi. Shuning uchun haqiqiy kinologlar o'zlariga biriktirilgan itlarga mehr, e'tibor ko'rsatadilar, – deydi Jahongir.

O'zingiz ham sezgan bo'lsangiz kerak, shu sababdan qahramonimizning kasbiga ham mehri bo'lakcha. Shuning uchun o'z vazifasini hamisha sidqidildan ado

etadi. Tanlagan kasbi orqali jinoyatchilikka qarshi kurashishga hissa qo'shayotganidan faxrlanadi.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.



El sog'ligi – yurt boyligi

YAROQSIZ MAHSULOT – YASHIRIN XATAR

IIV Karantin tadbirlarini ta'minlash bo'limi va uning quyi tuzilmalari tomonidan joylardagi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmalari, sog'liqni saqlash hamda boshqa mutasaddi idoralar bilan hamkorlikda qator tashkiliy chora-tadbirlar amalga oshirilmogda.



Joriy yilning o'tgan davrida veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmalari bilan hamkorlikda respublikamizda faoliyat yuritayotgan dehqon bozorlarida 7 522 marotaba, mol bozorlarda 900 marotaba, savdo majmualarida 13 236 marotaba va kushxonalarda 2 929 marotaba maqsadli profilaktik tadbirlar o'tkazildi.



MAZKUR TADBIRLAR DAVOMIDA ISTE'MOLGA YAROQSIZ BO'LGAN JAMI 29 667 KG GO'SHT VA QUIYDAGI MAHSULOTLAR ANIQLANDI:



Sirtidan qaraganda bular kim-gadir oddiy raqam bo'lib ko'rinar, ammo buncha yaroqsiz mahsulot sotuvdan olinmasdan xaridorlarga sotilganida kamida 100 mingdan ziyod oila sog'lig'i xavf ostida qolgan bo'lar edi. Shuning uchun aniqlangan har bir holat bo'yicha tegishli qonuniy choralar ko'rilmogda. Jumladan, veterinariya-sanitariya qoidalari hamda normalariga rioya etmagan 582 nafar shaxsga nisbatan ma'muriy bayonnoma-r rasmiylashtirildi. Shuningdek, veterinariya-sanitariya sohasida aniqlangan kamchiliklar yuzasidan mutasaddi idoralarga 109 ta taqdimnoma kiritildi.

Bugun ijtimoiy tarmoqlarda iste'mol uchun yaroqsiz va kelib chiqishi noma'lum bo'lgan mahsulotlar tarqalishiga doir ma'lumotlar kuzatilayotgani sir emas. Bunday holatlarning oldini olish maqsadida xodimlarimiz respublika hududida tashkil etilgan 18 ta YPX maskani va blok-postlarida chorva hamda chorva mahsulotlarini olib ketayotgan avtotransport vositalari tekshiruvdan o'tkazilmogda.

Jumladan, yaqinda G'alla-rol tumani hududida joylashgan «Sangzor-15» YPX blok postida «Samarqand-Namangan» yo'nalishi bo'yicha harakatlanib kelayotgan Qashqadaryo viloyati Kasbi tumanida istiqomat qiluvchi fuqaro S. Elboyev boshqaruvidagi «ISUZU» rusumli, avtomashina to'xtatib tekshirilganda, ushbu avtomashina yukxonasida jami og'irligi 9 ming kg go'sht mahsulotlarini noqonuniy tartibda veterinariya-sanitariya qoidalari-ga zid ravishda, tegishli veterinariya hujjatlarisiz, olib ketayotganligi aniqlandi. Ushbu mahsulotlar tegishli tartibda tekshiruvdan o'tkazildi va iste'molga yaroqsiz ekani ma'lum bo'ldi.

Xalqimiz, yurtdoshlarimiz salomatligi bilan bog'liq bu masalalar faqat mas'ul tashkilotlar ishi, demasdan barcha fuqarolar mas'ul bo'lsagina xalqimiz sog'lig'ini xartarga qo'ymagan bo'lamiz.

Dilshod ABDIJABBOROV,
IIV JXD JTSX Karantin tadbirlarini ta'minlash bo'limi bosh inspektori, podpolkovnik.

«AQLLI UY»

TEZ, QULAY VA XAVFSIZ

Qo'riqlash xizmatining «Aqli uy» loyihasi – texnologiya, xavfsizlik va qulaylik uyg'unligi.




QURILMALAR VA FUNKSIYALAR

	AQLLI KAMERA HD kuzatuv va yozuv
	HARAKAT SENSORI Harakatni aniqlaydi
	ESHIK/DERAZA SENSORI Ochilish holatini bildiradi
	AQLLI QULF Parol, karta yoki mobil orqali
	MOBIL ILOVA Barcha tizimni nazorat qiladi
	BOSH BOSHQARUV BLOKI Barcha sensorlarni boshqaradi
	TASHVISH TUGMASI Yong'in xavfini ogohlantiradi

«AQLLI UY» AFZALLIKLARI

- XAVFSIZLIK KAFOLATI**
Har qanday xavfga tezkor javob
- MASOFADAN BOSHQARUV**
Uyingizni istalgan joydan nazorat qiling
- TEZKOR XABARNOMA**
Ogohlantirishlar telefoningizga keladi
- ENERGIYA TEJAMKORLIGI**
Qurilmalarning past energiya iste'moli
- O'RNATISH OSON**
Qisqa muddatda o'rnatish va sozlash



Oylik o'rtacha to'lov –
77 000 so'm

Qo'riqlovga topshirish uchun onlayn ariza qoldiring

Bir necha daqiqada ariza topshirish va mutaxassislarimiz siz bilan bog'lanadi.

Tez, qulay va xavfsiz.

Sizga qulay vaqtda istalgan joydan.

BEPUL SERVIS XIZMATI

Foydalanish davrida bepul servis xizmati ko'rsatiladi va qurilmalar texnik qo'llab-quvvatlanadi.

POSTDA GAZETASINING ILOVASI

ZAMONAVIY XAVFSIZLIK

MOBIL NAZORAT

TEZKOR HIMOYA

SAMARALI XIZMAT

Aziz muhatriylar! Siz uchun nashrlarimizda yanada yorqin yangiliklarni taqdim etishda davom etamiz. Endi gazetamizning maxsus ilovalarida ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari haqida ham so'z yuritiladi.

Bu galgi ilovamiz aholi xonadonlari va obyektlar xavfsizligini ishonchli ta'minlayotgan Qo'riqlash xizmati faoliyatiga bag'ishlandi. Takomillashayotgan

sohaviy xizmatning bugungi kundagi zamonaviy imkoniyatlari bilan batafsil tanishishingiz mumkin. Shuningdek, sahifalarimizdan sohaning fidoyi xodimlari haqida lavhalar, hamkasblarning sport va xizmatdagi yutuqlari hamda «Issiq izida» fosh etilgan jinoyatlar tafsilotlari joy olgan.

Gazetamizni kuzatib boring, oldinda sizni yana ko'plab qiziqarli loyihalar kutmoqda!

QO'RIQLASH XIZMATI YANGI BOSQICHDA

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlarga hamohang tarzda, ichki ishlar organlari qo'riqlash xizmatida ham zamon talablari asosida ishonchli xavfsizlik tizimi joriy etilmoqda. Bunda asosiy e'tibor tizimni davr talablari asosida takomillashtirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar ko'lami, sifati va samaradorligini oshirishga hamda sohaga zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etishga alohida e'tibor qaratilgan.

4-5



Xavfsizlik – har bir fuqaroning tinch, osoyishta va erkin hayoti uchun eng muhim tayanchdir.

TO'LQINLAR MAVJ URAR YURAKDA



Xizmat faoliyatini 2020-yilda oddiy nazoratchi sifatida boshlagan leytenant Dilorom Akramova bugun Namangan viloyati IIB huzuridagi Qo'riqlash xizmati Moliya-iqtisod bo'limida bo'linma boshlig'i lavozimida xizmat qilmoqda.

– Otilada yagona qiz bo'lganim uchunmi, aka-ukalarim meni hamisha avaylashardi, – deydi lavhamiz qahramoni. – Lekin bolaligimdan jasurlikka, mustaqillikka intilardim. Xizmat libosini kiyish, qonun ustuvorligini ta'minlashga hissa qo'shish eng katta maqsadim edi. Tikuvchilik va pazandalik sirlarini o'rganganim ro'zg'orda asqatsa, karate bilan shug'ullanganim bugun xizmatda qat'iyatli bo'lishimga yordam bermoqda. Bo'sh vaqtimda kitob o'qiyman, chunki mutolaa inson qalbini go'zallashtiradi.

Kasbdoshlari Dilorom Akramovani nafaqat qat'iyatli xodim, balki

o'z ishining haqiqiy professional sifatida qadrlashadi.

– Dilorom bilan bir necha yildan buyon yelkama-yelka xizmat qilib kelamiz, – deydi serjant Qobiljon Orzimatov. – Moliyaviy hisob-kitoblarni, moddiy boyliklarni nazorat qilishdek mas'uliyatli vazifada u o'zining aniq ish tizimi va qat'iyati bilan ajralib turadi. Murakkab vaziyatlarda o'zining tezkor va to'g'ri qarorlari, irodasi bilan barchaga namuna bo'la oladi. Ham nozikta'b ayol, ham talabchan rahbar bo'lish oson emas, lekin leytenant Akramova buni a'lo darajada uddalayapti.

Uning yutuqlari butun jamoaning faxridir.

O'z ustida ishlashdan to'xtatmagan, bilim va shijoatni uyg'unlashtirgan Dilorom Akramovaning xizmat va hayot yo'li bugungi zamon ayolining jamiyatda qanchalik faol va kuchli bo'la olishiga yorqin misoldir.

Maqsadi sari dadil qadam tashlayotgan shijoatli leytenantga el-yurt osoyishtaligi va soha rivojini yo'lidagi sharafli xizmatida hamisha zafarlar yor bo'lishini tilaymiz.

Jahongir TO'XTASINOV,
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.

Minnatdorlik

«YAXSHIYAMKI, DO'KONIM QO'RRIQLOVGA OLINGAN EDI...»

Men Xorazm viloyati Qo'sh-ko'pir tumanidagi «Zara tekstil» oilaviy korxonasiga qarashli avtomobil entiyot qismlari do'koni egasiman. Shu yil 25-aprel kuni tunda do'konimizda o'g'riqlik jinoiyati sodir bo'ldi.

Yaxshiyamki, savdo shoxobchamiz tuman IIB huzuridagi Qo'riqlash xizmati tomonidan qo'riqlovga olingan. Do'kon oynasi ochilib, «tashvish» signali borishi bilan qo'riqlash naryadi

xizmat qilgani uchun chin qalbdan minnatdorlik bildiraman.

Bugungi kunda tadbirkorlik rivojini uchun xavfsizlik juda muhim. Qo'riqlash xizmati bilan hamkorlik qilish esa har bir fuqaro va tadbirkorga chinakam ishonch va xotirjamlik bag'ishlaydi.

Do'kon egasi sifatida Qo'shko'pir tumani IIB huzuridagi Qo'riqlash xizmati xodimlariga tezkorlikda va mas'uliyat bilan

Azamat BOLTAYEV,
tadbirkor.

Qo'shko'pir tumani.

SPORTDA PESHQADAM XODIMLAR

BIZNING XODIMLARIMIZ SPORT MAYDONLARIDA HAM YUKSAK NATIJALARGA ERISHMOQDALAR

YENGILMAS BOKSCHI QIZ

Qo'riqlash departamenti Davlat organlari obyektlarini qo'riqlash bo'yicha boshqarmasi safdor xodimi, safdor Mavluda Mavlonova boks bo'yicha xalqaro maydonlarda yurtimiz sharafiga munosib himoya qilib kelmoqda.

Uning sportdagi faoliyati yuksak natijalarga boy: Mavluda 2017–2024-yillar davomida mamlakat birinchiiliklarida raqiblariga hech qanday imkoniyat qoldirmay, 7 karra O'zbekiston chempioni degan sharafli nomga sazovor bo'ldi. Shuningdek, mahoratlil sportchi 2021-yilda Rossiyaning Moskva shahrida o'tkazilgan jahon chempionatida oltin medalni qo'lga kiritdi. 2024-yilda esa Butunjahon yoshlar universiadasida ham shohsupaning eng yuqori pog'onasini zabt etdi.



Bugungi kunda u davlat obyektlari xavfsizligini ta'minlashdek mas'uliyatli xizmatni o'tash bilan birga, katta sportdagi faoliyatini ham muvaffaqiyatli davom ettirmoqda.



RINGDA HAM, SAFDA HAM, CHEMPION

Safdor Behruz Jo'rayev – Olmaliq shahar IIB huzuridagi Qo'riqlash xizmatining namunali xodimlaridan biri. Zimmasidagi vazifalarni a'lo darajada uddalash bilan birga, u professional sportda ham salmoqli natijalarga erishib kelmoqda.

Behruz 2018-yilda o'tkazilgan muaytay bo'yicha jahon kubogi musobaqasida barcha raqiblarini mag'lub etgan bo'lsa, 2023-yilda muaytay, 2025-yilda esa Jlt Kun-Do bo'yicha jahon chempionatlarida zafar quchdi.

Xizmatda sergak va fidoyi, ringda yengilmas safdoshimiz sport maydonlarida yanada yuksak cho'qqilarni zabt etishiga ishonchimiz komil.

BURCH VA IJOD — BIR MAQSAD, BIR YURAK!



Xorazm viloyati IIB huzuridagi Qo'riqlash xizmati texnik qo'riqlashni tashkil qilish bo'limi katta mutaxassis, leytenant **Abbos Polvonov** o'zining xizmat faoliyati, ijodiy iqtidori bilan tizimda alohida e'tirofga sazovor bo'lib kelmoqda.

Ma'naviyat va ma'rifat markazi ham tahsinga loyiq. Jumladan, qoshidagi Ashula va raqs ansambliga yetakladi. Shu yerda artist sifatida xizmat faoliyatini boshlab, o'zining ijodiy chiqishlari orqali yoshlarda vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlaydi, yurt tinchligi va osoyishtaligini qadrlash g'oyalari targ'ib qildi.

Keyinchalik **Abbos Polvonov** xizmat faoliyatini Qo'riqlash departamentining Xorazm viloyati bo'linmalarida davom ettirib, nafaqat mas'uliyatli xodim, balki hamkasblariga ma'naviy kuch va ruhiy dalda berib kelayotgan ijodkor sifatida ham tanildi. Ayniqsa, soha xodimlarining jasorati, fidoyiligi va Vatanga sadoqatini madh etuvchi qo'shiqlari jamoa orasida alohida e'tirof etilmoqda.

Uning ijodiy va xizmat faoliyati davomida erishgan yutuqlari

ham tahsinga loyiq. Jumladan, Qurolli Kuchlar tarkibidagi harbiy xizmatchilar va xodimlar o'rtasida o'tkazilgan «Mardlar qo'riqlaydi Vatanni!» harbiy-vatanparvarlik qo'shiqlar ko'rik-tanlovida mutlaq g'oliblikni qo'lga kiritgan. Shuningdek, Milliy gvardiya harbiy xizmatchi va xodimlari ishtirokida tashkil etilgan «Baxshichilik» ijrochiligi yo'nalishidagi tanlovda birinchi o'rin sohibi bo'lgan. Bundan tashqari, turli madaniy-ma'rifiy tadbirlardagi faol ishtiroki va yuqori natijalari uchun bir qator diplom, tashakkurnoma va esdalik sovg'alari bilan taqdirlangan.

Abbos Polvonov ijod hamda xizmatni birlashtirgan holda Vatanga sadoqat bilan xizmat qilish mumkinligini amaliy faoliyati orqali isbotlamoqda.



«Isshiq izida»

OG'UFURUSH QO'LGA OLINDI

Qo'riqlash departamentining **Aydar-Arnasoy** ko'llar tizimini muhofaza qilish boshqarmasi xodimlari tomonidan navbatdagi nazorat tadbiri o'tkazildi. Tadbir davomida ko'l hududidagi daraxtzor orasida fuqaro **D.S.** shubhali harakatlar sodir etayotgani aniqlandi.



Tekshiruv natijasida ushbu shaxs tomonidan yashirincha parvarishlab kelinayotgan 23 tup kannabis g'iyohvandlik o'simligi ashyoviy dalili sifatida hujjatlashtirib olindi.

Holat bo'yicha tegishli hujjatlar rasmiylashtirilib, qonunbuzar fuqaro ichki ishlar organi sohaviy xizmatiga topshirildi.

Hozirda mazkur holat yuzasidan Jinoyat kodeksining tegishli moddasi bilan jinoyat ishi qo'zg'atilib, dastlabki surishtiruv harakatlari olib borilmoqda.

HUDUDLARDA «SECURITY OFIS»LARI

QO'RIQLASH XIZMATI YANADA YAQIN



IIV huzuridagi Qo'riqlash departamenti tomonidan aholiga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va innovatsion loyihalarni joriy etish borasida navbatdagi muhim qadam qo'yildi. Endilikda yurtimizning har bir hududida zamonaviy xizmat ko'rsatish maskanlari — «Security ofis»lar tashkil etilmoqda.

SIZ UCHUN
YANADA QULAY



Yaqin va qulay
Endi «Security ofislari» sizning hududingizda.



Tezkor xizmat
Mahalliy ofislar orqali tezkor murojaat va javob.



Mutaxassis maslahati
Xavfsizlik bo'yicha bepul konsultatsiya.



Doim yaqinimizda
Mahalliy jamoa — mahalliy himoya.



**XAVFSIZLIK —
HAR BIR OILA
VA HAR BIR
MAHALLA UCHUN
USTUVORDIR.**



«Security ofis»lar haqida ushbu QR-kod orqali bilib olishingiz mumkin

Zamonaviy yondashuv va tezkor xizmat — sizning ishonchli xavfsizligingiz kafolatidir! Buning uchun o'zingizga yaqin bo'lgan xizmat ko'rsatish ofislariga tashrif buyuring va maxsus takliflar egasiga aylaning!

Ushbu ofislarga tashrif buyurib, mulkingiz xavfsizligini ta'minlash bo'yicha mutlaqo bepul maslahatlar olishingiz, texnik qurilmalarni o'rnatishning eng maqbul yechimlari bilan tanishishingiz mumkin. Eng asosiy, 24/7 rejimida faoliyat yuritadigan mazkur ofislarda shaxsiy obyekt va xonadon uchun individual xavfsizlik rejasini ishlab chiqiladi hamda qo'riqlash tizimiga tezkorlik bilan ulanish imkoniyati taqdim etiladi.

QO'RIQLASH XIZMATI



ayollarning xavfsizligini ta'minlash amaliyoti yo'lga qo'yildi. Bu xizmat himoya orderiga ega ayollarning uylariga yoki qo'l telefonlariga «tashvish tugmasi»ni o'rnatish orqali amalga oshiriladi. Hozirda mazkur zamonaviy va ishonchli himoya tizimidan 8 mingga yaqin xotin-qizlar foydalanmoqda.

«Xavfsiz ta'lim» konsepsiyasiga muvofiq, bugungi kunda respublikadagi jami davlat ta'lim muassasalari 88 foizining xavfsizligi aynan qo'riqlash xizmati bo'linmalari tomonidan ta'minlanmoqda.

Soha faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya va sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishga jiddiy e'tibor qaratilyapti. Ichki ishlar organlari va qo'riqlash xizmatining axborot tizimlari o'zaro integratsiya qilinishi natijasida tezkor ma'lumot almashinuvi yo'lga qo'yildi.

Yana bir fakt: keyingi vaqtda sohada qo'llanilayotgan texnik vositalar va dasturiy ta'minotlarni mahalliylashtirish darajasi 40 foizdan oshirildi.



(Davomi. Boshlanishi ilovaning 1-betida.)

Bugungi kunda qo'riqlash bo'linmalari zamonaviy texnologiyalar, so'nggi rsumdagi texnik qurollar bilan to'liq ta'minlandi. Eng muhimi, sohaviy xizmat aholi hamda tadbirkorlik subyektlarining murojaatlari asosida tezkor, xavfsiz va ishonchli xizmat ko'rsatuvchi xalqchil tizimga aylantirildi.

Qo'riqlovga olishda ichki ishlar organlarining tegishli xizmatlari bilan o'rnatilgan yaqin hamkorlik samarasi o'laroq shartnoma asosida qo'riqlanayotgan obyekt va xonadonlar sezilarli darajada oshib, 250 mingga yaqinlashdi.

Aholi yashash joylarida xavfsizlikni kuchaytirish maqsadida ko'p qavatli uylarning yo'laklariga maxsus «tashvish tugmalari» o'rnatildi. Buning evaziga qo'riqlash naryadlari nazoratidagi uylar qamrovi kengayib, 300 mingdan ortiq xonadonlar tizimga ulandi. Bu xavftug'ilganda naryadlarni tezkor chaqirish, huquqbuzarliklarni zudlik bilan bartaraf etish imkonini bermoqda.

E'tiborga molik yana bir jihat shuki, himoya orderi berilgan

YANGI BOSQICHDA

Intellektual tizimlarning samarasi o'laroq, joriy yilning o'tgan davrida qidiruvda bo'lgan 200 nafarga yaqin shaxs ushlandi. 466 ta turli jinoyat, jumladan, 19 ta o'g'rilik hamda g'yohvandlik vositalarining noqonuniy aylanmasi bilan bog'liq 80 ta holat aniqlandi.

Shuningdek, kriminogen vaziyat murakkab bo'lgan «qizil» mahallalarda qo'riqlash xizmati tezkor harakatlanuvchi guruhlarining partulligi tashkil qilinib, qo'riqlovdagi obyektlar atrofi to'liq nazoratga olingani ta'minlash tizimi yanada takomillashtirilib, raqamlashtirish ko'lami oshirildi va sohaga sun'iy intellekt texnologiyalari faol tatbiq etiladi.

Birinchidan, obyektlar xavfsizligini ta'minlash tizimi yanada takomillashtirilib, raqamlashtirish ko'lami oshirildi va sohaga sun'iy intellekt texnologiyalari faol tatbiq etiladi.

Ikkinchidan, fuqarolarning shaxsiy xavfsizligini ta'minlash, ularni turli huquqbuzarliklardan, xususan, oilaviy zo'ravonlikdan himoya qilish bo'yicha «SOS» tezkor xizmati ko'lami kengaytirildi.

Uchinchidan, texnik qo'riqlash tizimiga xususiy sektorni jalb etgan



Qobil SHODIBEKOV, IIV huzuridagi Qo'riqlash departamenti boshlig'i, polkovnik.

holda, qo'riqlash xizmatlarini ham nazarda tutuvchi zamonaviy «Aqli uy» tizimi joriy etiladi.

Muxtasar aytganda, kelgusida ichki ishlar organlari qo'riqlash xizmatiga zamonaviy raqamli texnologiyalar keng qo'llangan holda, aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar ko'lami va sifati yanada yuqori bosqichga ko'tariladi.



Ветераны в строю

УКРЕПЛЯЯ АТМОСФЕРУ ДОБРОСОСЕДСТВА

За плечами Акмала Султанова 22 года службы в органах внутренних дел. Большую часть этого пути он прошел в Академии МВД Узбекистана. Выйдя на заслуженный отдых в звании майора, Акмал ака не остался в стороне от общественной жизни. Ведь что такое отдых для человека, привыкшего к дисциплине и постоянному труду?

Девять лет как Акмал Хидоят-Саркоревич является председателем МСГ «Мухандислар» Яккасарайского района столицы. Махалля многонациональная. Здесь в 41 многоквартирном доме проживает свыше 6,6 тысячи человек.

Махаллю можно назвать индустриальной, так как она расположена в районе бывшего текстильного комбината. Действует большое количество субъектов предпринимательства, относящихся к сфере производства, оказания услуг, функционируют 20 торговых точек.

Управление таким «живым организмом» требует не только богатого жизненного опыта, но и железной выдержки. Как и в годы службы, А. Султанов

проявляет инициативность, направляя силы на создание в махалле атмосферы добрососедства.

– Наш председатель – неумолимый человек, – делится жительница махалли Татьяна Митронина. – По любому вопросу можно обратиться к нему и всегда получишь дельный совет и реальную помощь.

– Секрет эффективности нашей деятельности прост – работа в команде. В нее прежде всего входят помощник хокима Шахзод Абдиев, женская активистка Гулирано Кулдашева, лидер молодежи Хожиакбар Хошимов, социальный работник Одил Одилов, сотрудник налоговой службы Камол Атамухамедов. Деятельность по укреплению порядка осуществляется

под руководством инспектора профилактики старшего лейтенанта Жасура Ярбекова, – делится ветеран.

На территории махалли расположены две общеобразовательные школы, поэтому работа с подрастающим поколением в приоритете.

– Стремимся воспитать у ребят уважение к родной махалле – месту, где они живут и растут, – отмечает председатель. – В махалле на постоянной основе ведется просветительская работа. На днях здесь прошли мероприятия, приуроченные к Международному дню семьи, под девизами «Мы против насилия» и «Просвещение против невежества». Все социально значимые мероприятия реализуем также сообща. В махалле



проживают 404 пенсионера и 44 лица с инвалидностью, им оказываются помощь и поддержка. В центре внимания вопросы трудоустройства временно безработных и лиц, включенных в «молодежную тетрадь». Во взаимодействии с органами занятости и труда участвуем в ярмарках вакансий. В нынешнем году за счет выделения льготных кредитов и субсидий, организации самозанятости и направления на предприятия трудоустроены 157 граждан.

Активно благоустраивается территория махалли. Перед 12 многоэтажными домами уложена брусчатка, отремонтированы фасады 10 домов. Создана Wi-Fi зона, обновлена детская площадка, обустроены две спортивные зоны и площадка для стритбола.

– Созидательная работа не прекращается, – подчеркивает Акмал ака. – Залог ее успешности – в сплоченности.

Радик ТУМΠΑРОВ,
соб. корп.

В образовательных учреждениях

ТАМ, ГДЕ ГНЕЗДЯТСЯ ЛАСТОЧКИ

Дети – цветы жизни. Если твоя душа жаждет радости, окупись в их мир. Если истосковался по искренности и чистоте – прижми их к сердцу.

Дошкольная образовательная организация «Қалдирғоч» («Ласточка») при УВД Сырдарьинской области, расположенная в городе



Гулистане, – территория добра и искренней заботы о детях. Стоит только переступить ее порог, как на душе становится легко и радостно. Когда малыши искренне приветствуют вас, в ответ неизменно рождается теплая улыбка.

...Исмоилхуже Ботирову пять лет. Он увлеченно рисует. Детский пейзаж с изображением гор, солнца и уютного домика трогает до глубины души. Мальчик с непо-

средственностью объяснил свой рисунок. Как оказалось, построить дом у подножия гор – его заветная мечта. В этом доме он хочет жить вместе с папой и мамой. Еще хочет, чтобы у него были лошади, овцы и козы. Мечтает на рассвете скакать по холмам на белоснежном коне...

В ДОО воспитывается 150 малышей. Большинство из них дети сотрудников органов внутренних дел. Работа организована здесь с учетом и полным пониманием специфики службы родителей.

Надежда Голубцева – опытный воспитатель. За ее плечами почти три десятилетия педагогического стажа. Малыши безгранично любят ее. Надежда Владимировна находит индивидуальный подход к каждому ребенку. Ее занятия часто превращаются в увлекательную игру.

Детский сад находится под постоянной опекой руководства УВД. Недавно здесь обновили мебель, оборудование, наглядные пособия. Установили множество развивающих интерактивных декораций. Двор благоустроен, увеличено количество игровых площадок, а их новое оформление пришлось всем по душе.

Абдурахмон МУСТАФОКУЛОВ,
соб. корп.
Сырдарьинская область.

КЛЮЧ К ПОЗНАНИЮ МИРА

В Нукусском военно-академическом лицее «Темурбеклар мактаби» МВД Республики Узбекистан прошел месячник русского языка. Высокий интерес учащихся к его изучению подтверждается масштабом проводимых мероприятий.



Ярким событием стал конкурс видеороликов «Поехали!», приуроченный к 65-летию первого полета человека в космос. Творческое состязание позволило учащимся не только реализовать креативные идеи, но и еще раз обратиться к великим страницам мировой истории.

Интеллектуально-музыкальное мероприятие в формате популярной викторины «Своя игра» стало настоящим праздником культуры и знаний, собравшим в одном зале не только лицеистов, но и почетных гостей. Среди них были председатель Русского культурного центра Республики Каракалпакстан Галина Зоркина, участницы международного проекта «Российский учитель за рубежом» Александра Филиппова, Шахлахан Насирова, Жанна Вахрамеева, Зульфья Семилетова.

Учащиеся первого курса лицея продемонстрировали впечатляющие знания, отвечая на вопросы, подготовленные учениками школ города Нукуса.

В рамках программы месячника прошли спортивные соревнования под названием «Богатырские забавы», где ученики с азартом состязались в традиционных подвижных играх, демонстрируя силу, ловкость и командный дух.

Открытые уроки, познавательные экскурсии и встречи объединены одной целью: показать, что изучение языка – не только полезно, но и увлекательно. Это путь к знаниям, новым друзьям и новым возможностям.

Ольга УТЕМУРАТОВА,
педагог.
Республика Каракалпакстан.

OUR SECTIONS ARE NOW ABOUT FIELD SERVICES!

We will continue to bring you, our readers, even more useful and interesting news. From now on, our sections will also cover the most important specialised services of the internal affairs agencies.



This issue is dedicated to the work of the guard service. In it, you can familiarise yourself in detail with the modern capabilities of the system that ensures the security of homes and premises. Also, our pages feature articles about dedicated staff, our colleagues' sporting and professional achievements, and details of crimes solved «in the heat of the moment».

Keep following our newspaper. Many more interesting projects await you!

Security – the primary criterion

COMPREHENSIVE STUDIES

A working group, led by colonel Diyorbek Sattarov, deputy minister of internal affairs of the Republic of Uzbekistan, conducted comprehensive inspections in the Navoiy region to prevent crime and ensure a safe environment in the mahallas.

The inspections began in the Qiziltepa district and continued in the city of Navoi, the districts of Karmana, Khatirchi, and Nurata, the city of Gozgon, as well as the districts of Tomdi and Uchkuduk, and the city of Zarafshon.

The working group examined the activities of the internal affairs departments, the crime situation, public safety, cooperation with the mahalla council, the handling of citizen appeals, and the state of targeted work with women and young people.

Specific tasks were set for the responsible parties to prevent crime and offences at an early stage,



to widely implement the «Safe and digital mahalla» principle, and to increase the number of surveillance cameras and panic buttons.

A senior analytical meeting was held at the conclusion of the study, attended by the heads of the regional DIA and the city and district DIA. The meeting discussed creating a safe environment, curbing crime, service discipline and legality, and the identified shortcomings were critically analysed. A group of employees who had demonstrated high results were incentivised.

Second talent

A STAGE PLAY THAT CAPTIVATED HEARTS

The dramatic play «Victims of War», staged by the «Nihol» creative troupe of the Spiritual and educational affairs and personnel service of the Tashkent city DIA, made a great impression on the audience.



The play, prepared to mark the Day of remembrance and honour, was directed by Muslim Nuraliyev, an actor from the Uzbekistan state theatre of satire. The script for the play was created in collaboration with the officials of the DIA in ideological and educational work and personnel supply, and members of the creative team.

The play movingly portrayed the tragedy of an Uzbek family during the World War II, the heroism on the front line, and the fortitude of the women left behind. Notably, all the roles were performed not by professional actors, but by staff of the internal affairs bodies.

The play was staged at a festive event at the

Tashkent city Main Directorate of internal affairs and was highly praised by both the leadership and the audience. Subsequently, the creative team also gave a special performance for the staff of the internal affairs bodies of the Sirdarya region.

– When I was first offered the role, I hesitated. The climactic scenes, in particular, demanded a great deal of emotional investment and preparation, – says Shahrizod Tolaganov, a senior sergeant and group commander of the Post-patrol detachment at the Olmazar, who played the role of Murod Ota.

The «Nihol» creative team's performance demonstrated that the industry personnel possess not only high professional skills but also great artistic talent.

Pride

THE CHAMPION DAUGHTER OF JUNIOR SERGEANT

Bahora Mahmudjonova became the Asian champion after defeating Aruna Shalman of Kazakhstan in the final of the 55 kg weight category. The young boxer has won the admiration of not only fans but also experts.



Bahora is the daughter of a police officer, junior sergeant Khojiakbar Kochkarov, a driver in the Logistics and service department of the Kokand city DIA. She has been training at the «Samandarok» boxing school in the Bagdad district since 2021.

– My daughter's interest in sport was evident from a young age. I am proud that she has become an Asian champion today, – says Khojiakbar Kochkarov.

Bahora is currently in the 8th grade at School № 37 in the Bagdad district. She also won a gold medal at

the Uzbekistan championship, held in Tashkent this February.

According to her coach, Ziyadbek Bahodirov, Bahora has the will and ambition of a true athlete.

The champion was given a hero's welcome upon her return from the competition by the people of Bagdad region and Qoshchinor mahalla. The region hakim, Khojikozi Isakov, also congratulated the young athlete and her coach.

– In the future, I want to become an Olympic champion and raise the flag of Uzbekistan even higher, – says Bahora Mahmudjonova.

Translated by Munavvar RASHIDOVA, docent.

Mulohaza

ICHIMIZDAGI «TARTIB POSBONI» UYG‘OQMI?

So‘nggi kunlarda ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda haydovchilik guvohnomasiga ega bo‘lmasdan mashina boshqargan shaxslar ishtirokidagi yo‘l-transport hodisalari «trend»ga chiqdi. Bu holatlar oqibatidan yuragimiz uvushib turgan bir vaqtda, yurtimiz yo‘llarida 192 nafar shaxsning «prava»siz mashina boshqargani kameralar nigohiga tushgani xavotirlarimizni yanada oshirdi.

OCHIQCASIGA HURMATSIZLIK

Haydovchilik guvohnomasi shaxsning yo‘l harakati qoidalarini bilishi, murakkab texnik vositani boshqarishga ham ma‘nan, ham jismonan tayyor ekanligini tasdiqlovchi hujjatdir.

Xo‘sh, bunday kafolatlovchi hujjatga ega bo‘lmagan shaxsning avtoullovni boshqarishini qanday oqlash mumkin? Haydovchilik huquqi bo‘lmagan shaxsning mashina boshqarishi jamiyatda o‘rnatilgan tartib-qoidalarga nisbatan ochiqchasiga hurmatsizlikdir. Muammoning eng og‘riqli nuqtasi ham aynan shunda. Qolaversa, bu inson hayotiga ongli ravishda xavf tug‘dirishdir.

«HOY, BARAKA TOPKUR, AVVAL O‘QI!»

Avtomashinani boshqarish uchun nafaqat hujjat, balki yetarli mahorat va javobgarlik hissi ham bo‘lishi shart. Bugungi kunda yurtimizda haydovchilikka o‘qish va imtihon topshirish jarayonlariga qat‘iy talablar qo‘yilgani bejiz emas. Bu – fuqarolar xavfsizligini o‘ylab amalga oshirilayotgan muhim chora-tadbirlardir.

Biroq, ming afsuski, oramizda hamon «prava»siz mashina haydayotganlar bor. Bu jamiyatimizda mazkur illatga nisbatan murosasizlik muhiti hali to‘liq shakllanmaganidan dalolat beradi. Oddiy hayotiy misol: biror tanishimiz hujjatsiz mashinani ko‘chada «uchirib» yurganini ko‘rganda «barakalla» deyish emas, balki unga bu qilmishing kimningdir hayotiga xavf soladi deb dakki berishimiz kerak.



Ularga: «Hoy, baraka topkur, avval haydovchilikka o‘qi, guvohnomangni ol, keyin rulga o‘tir», – desak asakamiz ketmaydi.

KAMERALAR «NAZORATI»DASIZ

Yo‘llardagi xavfsizlikni ta‘minlash borasida «ko‘rinmas» qoidabuzarliklar – ya‘ni, guvohnomasi bo‘lmagan yoki bu huquqdan mahrum etilgan shaxslarning mashina boshqarishi ham kameralar e‘tiboridan chetda qolayotgani yo‘q.

Yuqorida ta‘kidlangan, mazkur yo‘nalishdagi 192 ta holat shunchaki statistika emas, balki yo‘llardagi xavfning aniq ko‘rinishidir. Agar bu ma‘lumotlarni tahlil qilsak, qoidabuzarlik geografiyasida Xorazm viloyatida – 60 ta, Toshkent shahrida – 40 ta holat qayd etilgani kishini o‘ylantiradi.

Xorazmning bu borada «peshqadam» bo‘lishi hududda kameralar soni ortganidanmi yoki haydovchilarning qonun-qoidalarga bepisandligidan? Poytaxtda esa nazoratning shunchalik qat‘iyligiga qaramay, 40 nafar kishining guvohnomasiz avtomobil hayda-

Keling, biz yigirma million so‘mlik jarimani olaylik. Bu bir qarashda «og‘ir» jazo, katta mablag‘dek ko‘rinishi mumkin. Ammo buni inson hayoti bilan solishtirib bo‘ladimi? Axir haydovchilik huquqidan mahrum bo‘la turib mashina boshqargan shaxs ongli ravishda qonunni buzib, o‘zgalar hayotiga xavf solmoqda-ku!? «Bunda faqat jarima bilan cheklanish yetarlimikin? Balki, shu taxlit «uddaburonlar» uchun jazo choralarini kuchaytirish kerakdir, degan fikr boshimizda charx urishi ham rost.

SO‘NGGI SO‘Z O‘RNIDA

Ilgarigi «YPX inspektori ko‘rmasa, qutulib qoldim» degan tushunchalar allaqachon eskirdi. Hatto yaqinda shunchaki tezlikni o‘lchaydigan yoki chiziq bosilganini qayd etadigan kameralar ham takomillashib, ruldagi insonning shaxsini tun qorong‘isida ham, oynalar ortida ham «aniqlaydigan» darajaga yetdi.

Biroq muammoning asl ildizi texnologiyaning kuchida emas, balki inson madaniyatining texnika taraqqiyotidan ortda qolayotganidir. Qolaversa, har qanday vaziyatda yo‘ldagi tartib-qoidalarga rioya etish faqat kameralarga emas, balki har bir insonning huquqiy madaniyatiga ham bog‘liq. Aks holda, hatto eng yuqori jarima ham kimdir uchun shunchaki «yo‘l haqi» bo‘lib qolaveradi.

Unutmang, eng mukammal kamera ham vijdon o‘rnini bosa olmaydi. Avtoullovni hujjatsiz boshqarish – bu nafaqat qonunni chetlab o‘tish, balki o‘zgalar taqdiriga nisbatan adolatsizlikdir. Shu bois, avvalo, ichimizdagi «tartib posboni»ni uyg‘otishimiz kerak. Toki, yo‘ldagi harakatlarimiz jarima qo‘rquvidan emas, balki inson hayotiga bo‘lgan e‘tibor, hurmatdan boshlansin.

Gulnoza TURG‘UNBOYEVA,
o‘z muxbirimiz.

Minnatdorlik

Oilada kimningdir kutilmaganda bedarak yo‘qolishi har qanday insonning hayotida og‘ir sinovlardan biri hisoblanadi. Bunday vaziyatda oila a‘zolarida qo‘rquv, bezovtalik va xavotir kuchayadi. Ular yaqin insonning qayerdaligi, sog‘-salomatmikan degan savollar girdobida qoladilar.

– Ukam Jamoliddin tug‘ma nogiron, gapirolmaydi, lekin beozor, – deydi poytaxtimizning Chilonzor tumani «Beshqo‘rg‘on» mahallasida yashovchi Rivojiddin Karimov. – Hardamxayolli bor, agar nazoratsiz qolsa, ko‘chaga chiqib, duch kelgan tomonga ketib qoladi. Bu holat avval ham bo‘lgandi...

Jamoliddin joriy yilning 25-aprel kuni soat taxminan 6:30 larda uydan chiqib, boshi oqqan tomonga ketib qoladi. Yaqinlari mahalla atrofini ancha qidirishadi, afsuski, barcha urinishlar samarasiz bo‘ladi. Vaqt o‘tishi bilan oila a‘zolarining xavotiri yanada ortadi. Mazkur holat yuzasidan Chilonzor tumani IIOFMBga murojaat qilishga majbur bo‘lishadi.

Tuman IIOFMB JQB boshlig‘i, kapitan Sherzod Zufarov, bo‘lim xodimlari podpolkovniklar Hojiakbar To‘xtayev va Dilshod Sodiqov murojaatni qabul qilib, tezkor-surishtiruv ishlarini olib borishadi. Bedarak yo‘qolgan fuqaro haqida aniq ma‘lumotlar to‘plab, barcha tegishli xizmatlarga tezkor xabarnomalar yuboriladi.

– Yagona tezkor boshqaruv markazi orqali qidiruv ishlarini tashkil etildi, – deydi podpolkovnik

«SHUKUR, UKAMIZ TOPILDI»

Hojiakbar To‘xtayev. – Markazdan olingan ma‘lumotga ko‘ra, qidiruvdagi fuqaro Pedagogika universiteti chorhasida mashinadan tushib qolganini aniqlandi. Shu asosda uning harakat yo‘nalishi bo‘yicha izlash ishlari davom ettirildi. Mahalla fuqarolaridan ham so‘rab-surishtirildi.

Ertasi kuni soat 22:00 lar atrofida Chilonzor tumani Katta Chilonzor-3 mahallasidan u sog‘omon holda topildi va oilasiga qaytarildi.

– Albatta, bu holat biz uchun juda og‘ir sinov bo‘ldi, – deydi Rivojiddin Karimov. – Shunday og‘ir damlarda ichki ishlar organlari xodimlari

yuksak tezkorlik va mas‘uliyat bilan harakat qildi. Murojaatimizga ko‘ra, barcha kuch va vositalarni jalb etib, qidiruv ishlarini boshlashdi. Har bir ma‘lumotga jiddiy yondashib, biror tafsilotni ham e‘tibordan chetda qoldirishmadi.

Ukamizning topilgani haqidagi xushxabarni eshitgan paytdagi quvonchimizni so‘z bilan ifodalash qiyin. Jigaramizni sog‘omon ko‘rganimizda, qalbimiz cheksiz shukronalik tuyg‘usiga to‘ldi.

Shu o‘rinda uning topilishiga hissa qo‘shgan barcha ichki ishlar organlari xodimlariga samimiy minnatdorlik bildiramiz. Ularning tezkorligi, yuksak mas‘uliyati va insonparvarligi tufayli yaqinimiz sog‘omon bag‘rimizga qaytdi. Bunday e‘tibor va yordamni bir umr unutmaymiz.

Darhaqiqat, mazkur holat ham ichki ishlar organlari xodimlarining insonparvarlik va professional yondashuvi tufayli o‘z ijobiy yechimini topdi. Bu esa jamiyatda davlat idoralari ishonch mustahkamlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Adolat FAYZIYeva,
o‘z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

Xorij tajribasi

POLITSIYA «BIR QADAMLIK» MASOFADA

Turli mamlakatlarda huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati qanday yo'lga qo'yilgani haqida hikoya qiluvchi ruknimizni davom ettiramiz.

E'tibor markazida – aholi bilan o'zaro hamkorlikka asoslangan va «servis» yondashuvini amalga oshirishga qaratilgan konsepsiya. Bu boradagi muvaffaqiyatli xorij tajribalaridan biri – Yaponiyadagi koban tizimidir.

Koban tizimi

«Koban» termini XIX asrning oxirlarida paydo bo'lgan bo'lib, «kotay» (smenali) va «tatiban» (navbatchilik) so'zlarining qisqartma shakli hisoblanib, «smenali qorovul budkasi» degan ma'noni anglatadi. Hozir «kunchiqar yurt»da 12 800 dan ziyod shunday uchastkalar faoliyat olib boradi. Navbatchi politsiyachilarni aholi «o-mavari-san» (janob patrul) deb ataydi.

Tizimning asosiy xususiyati – ochiqlik. Politsiya xodimining ish joyi ko'chaga qaragan deraza yoki shaffof eshik yonida joylashgan. Chet elliklar ham oson tanib olishi uchun koban nomi har doim lotin alifbosida yoziladi.

Odamlar ko'k rangdagi xizmat formasini kiygan politsiyachini ko'rib, o'zini xavfsiz his qiladi. Zero, mamlakatda koban tizimi fuqarolarning politsiyaga bo'lgan yuksak ishonchini ifodalaydi.

Qishloq joylarida koban ko'pincha idoraviy xonadon («chudzaysyo») bilan birlashtiriladi. Bu yerda «o-mavari-san» oilasi bilan yashay-

di va jamiyatning hurmatli a'zosi hisoblanadi.

«O-mavari-san» nima bilan shug'ullanadi?

Uchastka xodimlari so'dir etilishi ehtimoli bo'lgan jinoyatlarning oldini oladi. Hududda piyoda, velosipedda, mopedda yoki yengil



avtomobilida patrullik qiladi, aholining shikoyatlarini tinglab, ularga zarur tavsiya va maslahatlar beradi. Hatto adashib qolganlar ham ularga murojaat qiladi. Qolaversa, uydan chiqib ketgan kekxa odamni topish (so'nggi paytlarda tobora ko'p uchrayotgan holat)da ular yordamga keladi.

Politsiya xodimlari aholini firibgarlik, jumladan, kiber-

jinoyatchilikning zamonaviy turlari haqida ogohlantirishadi.

Agar kimdir ko'chada hamyon yoki kalit topib olsa, ularni kobanga olib borib topshiradi. Ushbu tizim tufayli mamlakatda yo'qolgan buyumlarni egasiga qaytarish holatlari dunyo bo'yicha

eng yuqori ko'rsatkichga ega.

Tizimning shiori – «Ishonch orqali profilaktika». Bu aholi «o-mavari-san»ni «o'z odami» sifatida qabul qilishiga xizmat qiladi.

Hi-tech va an'analar

Yaponiya an'analarni innovatsiya bilan muvaffaqiyatli uyg'unlashtiradi. Zamonaviy koban nafaqat «tayanch



punkti», balki xavfsizlik servis markazidir. Ushbu maskanda 10–12 tilda savollarga javob bera oladigan sun'iy intellekt tizimiga ega moslamalar o'rnatilgan. Ular geoaxborot terminallari va sensorli panellar bilan jihozlangan. Agar xodim hududni aylanish uchun chiqib ketgan bo'lsa, fuqaro binoga bemaol kirishi, kerakli ma'lumotni olishi yoki interaktiv monitor orqali u bilan bog'lanishi mumkin.

Mamlakatda koban uchun yangi binolar loyihalarini ishlab chiqishda mashhur arxitektorlarga murojaat qilinadi. Bu politsiya binolari zamonaviy va «do'stona» ko'rinishda, shahar landshaftining ajralmas qismi sifatida namoyon bo'lishini ta'minlaydi.

Dolzarbligi nimada?

Koban tizimi JICA ko'magida Singapur, Indoneziya, Braziliya va boshqa mamlakatlarda muvaffaqiyatli amalga tatbiq etilgan. Bu tizim politsiya va aholi o'rtasida ishonchni mustahkamlash orqali jinoyatchilikni sezilarli darajada kamaytirishga yordam bergan.

Jamoat xavfsizligi faqat ma'muriy ko'rsatmalar va reglamentlarga emas, balki doim yordamga shay tayanch punktlarining samarali yo'lga qo'yilgan faoliyati bilan ham baholanadi.

Bunyod DAVRONOV,
mayor.
Radik TUMPAROV,
o'z muxbirimiz.



Bir ibora izohi

YENG SHIMARIB

Bu ibora «Astoydil, jon-jahdi bilan» ma'nosini bildiradi. Shuningdek, «g'ayrat bilan ishlash», ya'ni ishni boshlaganda yengini yuqoriga ko'tarib, harakatga tayyorlanish, «astoydil» so'ziga ma'nodosh bo'lgani uchun ba'zan «qat'iyat bilan», «jon jahd bilan» «rosmana bel bog'lab» shakllarda ham ishlatiladi.

Mutaxassislar bu iboraning yuzaga kelishini xalqimizning kiyinish madaniyati bilan bog'lashadi. Ma'lumki, avval yengil kalta kiyim kiyish urf bo'lmagan. Ayniqsa, o'zbek ayollari kiyimlarining yengil, shar'iy qoidalarga ko'ra, qo'l barmoqlari boshlanadigan joygacha bo'lgan. Shu sababli

biror yumush bajarishdan oldin kir bo'lmasligi, xalaqit qilmasligi uchun kiyim yengini shimarib olishgan. Masalan, «Nusratilla pochcha yeng shimarib, oshga qo'l uzatdi» (Murod Mansur, «Judolik diyori»), «Asqaralining kelini yeng shimarib tappi yopardi» (Tohir Malik, «Devona»).

Ammo keyinchalik kiyimlar yengil qisqargach, yengil-yelpi ishlarni bajarish uchun, ko'ylak yengini shimarish shart bo'lmay qolgan. Natijada yeng shimarib birikmasi ko'chma ma'noda qo'llanishni boshlagan va shu ko'chma ma'nosi bilan birga iboralashgan. Masalan: «Bugun, shanba kuni, ertalabdan tahririyatga kelib, yeng shimarib ishlab o'tirsam, qo'ng'iroq bo'lib qoldi». (A. Meliboyev, «Qirq beshinchi bekat».) Bu gapda «yeng shimarib» iborasi biron-bir yumushni «astoydil, jon-jahdi bilan» qilmoq ma'nosida kelgan.

Shuhrat RO'ZIYEV
tayyorladi.

ҲАР КЎНГИЛДА МЕҲР УНСИН

Пойтахтимизнинг Сергели тумани «Қурувчилар» маҳалласидаги мўъжаз ва шином хонадонга қадам кўяр эканмиз, димоғимизга райхоннинг хушбўй ифори урилди. Бу гўзаллик ва орасталик хонадон бекасининг қалб қўридан далолат берса, оила боши Сайдивали Кабуловнинг акаси Абдинаби Кабуловни «Келинг, ака!» дея жигарларга хос меҳр-оқибат, самимият ва очиқ чеҳра билан кутиб олиши бу файзли манзилни янада ёриштириб юборди.

Ички ишлар органларида эл осойишталиги йўлида самарали хизмат қилган ака-укалар билан суҳбатимиз, бевосита уларнинг падарбузруги Абдулла ота билан боғлиқ илиқ хотиралар билан бошланди.

Абдулла ота Иккинчи жаҳон урушининг оловли йилларида биринчилардан бўлиб Ватан олдидаги йигитлик бурчини адо этишга отланган. 1945 йилнинг декабрь ойида жангоҳлардаги не-не синов, ўлимларни доғда қолдириб, юртига ёруғ юз билан қайтган қаҳрамонлардан бири бўлган. Урушдан кейинги машаққатли тикланиш йилларида оддий ишчиликдан раҳбарлик лавозимига бўлган йўлни босиб ўтган отахон Асолат ая билан қурган аҳил оила кўрғонида уч ўғил ва тўрт қизни камолга етказди. Фарзандлари қалбида илм-маърифатга иштиёқ уйғотиш билан бирга, уларга меҳнат-севарлик ва ҳалоллик каби чин инсоний фазилатларни сингдиришга интилади. Қатъият билан суғорилган ота тарбияси ўларок, оиланинг икки ўғли бирин-кетин ички ишлар органларидек масъулияти оғир, аммо шарафли касбни танладилар.

– Отамнинг турли соҳа вакиллари билан дўстлари кўп эди, – дея болалик хотираларини эслайди истеъфодаги полковник Абдинаби Кабулов. – Ҳарбий хизматдан қайтган кезларим эди. Уларнинг дўсти Владимир аканинг «Менга касбдош бўласанми?» деган сўзлари қалбимдаги мақсадларимни қатъийлаштирди. Отамнинг «Ҳеч қачон юзимни ерга қаратмайсан, эгнингдаги формага доғ тушурмайсан, ҳалол ва виждонан меҳнат қиласан!» деган қатъий талаби бир умрлик шиоримга айланди. Қарийб ўттиз йиллик хизматим давомида ушбу ақидага амал қилиб, кам бўлмадим, балки ўзим танлаган касбда униб-ўсдим.

Истеъфодаги полковник Абдинаби Кабулов ҳозирда Тошкент шаҳар ИИББ Маънавий-маърифий ишлар ва кадрлар билан таъминлаш хизмати бошлигининг мас-

лаҳатчиси сифатида фаолият юритмоқда. Унинг ҳар бир йўл-йўриги, маслаҳати соҳага кириб келаётган ёш ходимлар учун истиқбол йўриқномаси десак, асло муболаға бўлмайди. Қувонарлиси шундаки, айна пайтда ички ишлар органлари соҳавий хиз-

сиб тарзда одимлаётгани мисолида яққол кўринади.

Суҳбатимиз Абдулла отадан мерос маънавий талаблар оиланинг кенжа ўғли Сайдивали Кабулов юрагига кўчиши ҳақидаги хотиралар билан давом этди.

Сайдивали ака 1987 йилда илк хизматини ЙПХ инспектори сифатида бошлагани, айна пайтдаги соҳаривож, техник имкониятлар ва ёшлар учун яратилган шарт-шароитларни кўриб, ҳаваси келишини яширмади. «Мўъжиза юз бериб менга яна имконият берилганида, янада зўр шижоат билан хизмат қилган бўлардим», – дея борлигига айланган шарафли хизмат борасидаги ҳаяжонга тўла изҳорлари фидойи ходимнинг қалбидаги эл хизмати маёғининг нақадар баландлиги далолати бўлди. Қувонарлиси, бугун ушбу эътиқод маёғи ички

хизматда ҳам кўшқанот бўлиб келмоқда.

Фидойи фахрий ходимнинг сафдорликдан то Тошкент шаҳар ИИББ ЙХХБ Маъмурий амалиёт бўлими бошлиғи лавозимига бўлган 35 йиллик хизмат йўли ибрат мактабидир. Подполковник унвонида, ёруғ юз билан пенсияга кузатилган бу инсондаги камтарлик ва самимият алоҳида таҳсинга лойиқ. Унинг меҳрибон ва ширинсўз аёли, шифокор Сурайё опа билан биргаликда тарбиялаган қизлари Шаҳнозаҳон ва Малика-хонларнинг жамиятда ўз ўринларини топгани, бир биридан ширин набираларининг шўхликлари, беғубор кулгилари оила бахти ва тўқислигининг ёрқин ифодасидир.

Ҳар бир сўзида ҳаёти ва меҳнатидан розилик туйғуси акс этиб турган Сайдивали Кабулов яқин кунларда 60 ёшини қарши олади.

Сайдивали Кабулов хонадонидан дилдан суҳбат қуриб ортга қайтар эканмиз, меҳр унган кўнгилда нафақат маҳорат, балки мустаҳкам оқибат аксланишига яна бир бор амин бўлдик. Кабуловлар сулоласи мисолида биз нафақат касбий ворисликни, балки оилавий қадриятларнинг авлоддан-авлодга безавол ўтганини кўрдик. Бу катта оила вакилининг ҳар бир муваффақияти замирида ота ўғитига садоқат, ака-ука ўртасидаги меҳр ва касбга бўлган чексиз ҳурмат муржабам. Ниятимиз, ҳамиша эзгу мақсадлар қаршисида, ҳар кўнгилда ана шундай чексиз меҳр унсин.

Гулноза ТУРҒУНБОЕВА,
ўз мухбиримиз.



Суратда: Абдинаби Кабулов фарзандлари билан.



Суратда: Сайдивали Кабулов оиласи билан.

Кабулов. – Ҳарбий хизматдан қайтган кезларим эди. Уларнинг дўсти Владимир аканинг «Менга касбдош бўласанми?» деган сўзлари қалбимдаги мақсадларимни қатъийлаштирди. Отамнинг «Ҳеч қачон юзимни ерга қаратмайсан, эгнингдаги формага доғ тушурмайсан, ҳалол ва виждонан меҳнат қиласан!» деган қатъий талаби бир умрлик шиоримга айланди. Қарийб ўттиз йиллик хизматим давомида ушбу ақидага амал қилиб, кам бўлмадим, балки ўзим танлаган касбда униб-ўсдим.

Истеъфодаги полковник Абдинаби Кабулов ҳозирда Тошкент шаҳар ИИББ Маънавий-маърифий ишлар ва кадрлар билан таъминлаш хизмати бошлигининг мас-

матларида фаолият юритаётган подполковник Бахтиёр Кабулов ҳамда майор Ихтиёр Кабуловнинг қалби қиёфасига ҳам шарафли касб масъулияти кўчган. Бу уларнинг отаси Абдинаби Кабуловнинг изидан муно-

ишлар органлари соҳавий хизматларида фаолият юритаётган унинг ўғли, катта лейтенант Саидаббос Кабулов ва келини, сафдор Муножат Кабулованинг фаолиятида ҳам акс этмоқда. Улар бир-бирига оилада,

Бир сурат тарихи

«УСТОЗЛАР ЎГИТИ БИЗ УЧУН МАКТАБ»

Сиз кўриб турган ушбу суратлар олингани орасидаги фарқ оз эмас, кўп эмас – 20 йил.



Эсимда, 2006 йилнинг 4 феввали эди. Ўша куни ИИБ Академиясида бўладиган илмий-амалий конференцияга қатнашиш учун кетаётган пайтда поятахтимизнинг Дўрмон йўли – Ҳазалкент кўчалари кесишмасида хизмат ўтаётган ЙПХ ходимларига кўзим тушди. Об-ҳаво анчагина совуқ бўлса-да, ходимлар ҳушёр ва тетик хизмат ўтарди. Уларнинг руҳсати билан хизмат фаолиятини суратга олдим.

Ўша бир лаҳзалик фотолавҳа ҳозирда ички ишлар вазирлиги музейида осиглик турибди. У вақтда Тошкент шаҳар ИИББ ЙХХБ ЙПХБ Алоҳида махсус дивизион 1-гурӯҳ командири лавозимида, катта лейтенант унвонида бўлган Алимӯҳаммад Саидахматов ҳозирда Жиззах вилояти ИИБ ЖХХ ЙХХБ бошлиғи, подполковник унвонида эл тинчи ва юрт осойишталигида ҳалол

ва виждонан хизмат қилмоқда. Дастлаб Тошкент вилоятида, кейинчалик Қорақалпоғистон Республикаси ИИБ ЙХХБда самарали хизмат қилди. Маррани кенг олган Алимӯҳаммад ИИБ Академиясининг магистратура босқичини аъло баҳоларга тугатди. 2024–2025-йиллар Сурхондарё вилоят ИИБ ЙХХБ бошлиғи бўлди.

– Устозлар ўғити – улкан мактаб, – дейди подполковник А. Саидахматов. – Вилоят ИИБ бошлиғи, генерал-майор Ғайрат Қодировдек устозлар билан бирга бамаслаҳат хизмат қилиш, уларнинг изидан бориш биз учун шараф!

Ҳа, устозлар ўғитида гап кўп. Уни англаган шогирднинг мақоми ҳам юксак бўлади.

Абу КЕНЖАЕВ,
фотомухбир.

Sud ocherki

Eng og'ir yo'qotish

Hammasi Jamolning halol mehnatdan qochib, oson daromad ilinjida egri yo'lni tanlashidan boshlandi. 2024-yilda unga ilk imkoniyat berilgandi. O'shanda Namangan shahar sudi uni o'g'irlik jinoyatini sodir etganlikda aybdor deb topib, axloq tuzatish ishlari jazosini tayinlagan, bu hukm aslida yigit uchun so'nggi ogohlantirish edi. Biroq peshona teri bilan rizq topish Jamol uchun ko'tarib bo'lmay og'ir yukdek tuyuldi. U nafaqat zimmasidagi mas'uliyatdan, balki qonun nazoratidan ham qochishni afzal bildi. Belgilangan jazoni o'tab, xatolarini tuzatish o'rniga, yashirinib, qing'ir yo'llardan yurishda davom etishni tanladi.

2025-yilning bahori. U endi oddiy qochoq emas, balki och kalxatdek atrofga alanglab, navbatdagi «o'lja»sini qidirayotgan jinoyatchiga aylangandi. Uning ilk qurboni eski tanishi Abror bo'ldi.

«Chorsu» bozori. Shovqin-suron, savdoning qizg'in payti. Jamol fursatni boy bermay, tanishi Abrorning yoniga keldi va «bir og'iz qo'ng'iroq qilib olay», deya uning telefonini so'radi. Ishonch – insonlar o'rtasidagi ko'rinmas, ammo mustahkam ustun. Abror ana shu ustunga tayanib, telefonini uzatdi. Biroq Jamol uchun bu shuncha-ki 1,5 million so'mlik match edi.



U ishonchni o'sha soniyada pullab bo'lgandi.

Shu voqeadan so'ng go'yo Jamolning ichidagi barcha to'siqlar butunlay yemirildi. Bir bora ishonchni suiiste'mol qilib, nafs ta'mini tatigan kimsa uchun bu yo'l yanada osonlashadi, vijdon ovozi esa kun sayin so'na boradi. Jamol ham endi odamlarni emas, faqat ularning qo'lidagi narsalar – moddiy qiymatga ega «obyekt»larni ko'ra boshladi. Uning nazdida har bir uchrashuv – qulay imkoniyat, har bir ishonch – foyda manbayi edi. Ammo Jamol anglamagan achchiq bir haqiqat ham bor edi: ishonchni yo'qotish – eng og'ir yo'qotish, uni qayta tiklash ko'pincha umrga teng vaqt talab qiladi...

NAFS TUZOG'I

Sud zali. Temir panjara ortida boshini egib o'tirgan Jamol Nazirovning (ism-shariflar o'zgartirildi) qiyofasiga boqib, beixtiyor, o'yg'a tolasan: nahotki, yigirma to'rt yoshli yigitning hayot haqidagi tasavvurlari shu qadar tor, maqsad va intilishlari shu qadar yuzaki bo'lsa? Uning nigohlarida na pushaymonlik, na kelajakka bo'lgan umid ko'zga tashlanadi. Bor-yo'g'i – charchoq va ertami-kechmi tugashi muqarrar bo'lgan «erkin hayot»ning so'nggi bekatidagi sovuq befarqlik. Bu sukunatli manzarada go'yo vaqt ham to'xtab qolganek. Zaldagi har bir nigoh, har bir shivir-shivir uning taqdiriga bitilgan hukmni oldindan his etganek, go'yo.



«Hojatbaror»

Jamolning gavjum maskanlarni xush ko'rishi bejiz emas – gavjum olomon ichida «ov» qilish oson. Ayniqsa, murakkab qurilmalardan foydalanishga qiynalayotgan keksalar yoki sodda ayollar uning asosiy nishoniga aylandi. Sardoba dahasida joylashgan «Megapolis» savdo majmuasi oldidagi bankomat Jamol uchun navbatdagi «nayrang sahnasi» vazifasini o'tadi.

Bu yerda u o'zini yordamga shay, «hojatbaror» yigit qilib ko'rsatar, odamlar ishonchiga kirish borasida «mahorat maktabi»ni o'tagandek, ustalik bilan harakat qilardi.

«Opajon, qiynalmang, plastik kartochkangizni bering, pulingizni o'zim yechib beraman», – dedi u bir gal soxta tabassum va mulo-

yimlik bilan. Gulnoza opa esa unga xuddi o'z ukasidek ishonib, bank kartasini tutqazdi. Jamol bankomat ekranida ayol so'ragan 200 ming emas, balki 900 ming so'm miqdoridagi mablag'ni tezkorlik bilan kiritdi. So'ng «mana, pulingiz, opajon» deb 200 mingni uzatdi. Bu paytda qolgan 700 ming so'm uning cho'ntagidan joy olgandi.

Xuddi shu usul, xuddi shu senariy Saida ismli ayol bilan ham takrorlandi.

Jamol har bir muvaffaqiyatli aldovdan so'ng o'zini yanada ustasi farangdek his etar, nafsining qalloblik bilan qondirilishidan sarmast edi. Ammo anglamasdiki, har bir noqonuniy «yutuq» uni qadamba-qadam muqarrar jazo sari yetaklab borayotgan edi.

Tanazzul

Jinoyatning kichigi yoki kattasi bo'lmaydi, ammo uning muntazam takrorlanishi tanazzul boshlanganidan darak beradi. Jamol 21-aprel kuni sotuvchi Olimjonning «Samsung A16» telefonini o'g'irlab, uni 2,1 million so'mga sotib yuborganida, go'yo o'z taqdiriga o'z qo'li bilan yakuniy nuqtani qo'ygandi. Bu endi tasodifiy xato emas, ongli ravishda tanlangan yo'l – halokat sari yetaklovchi qaror edi.

Tergov jarayonida uning nafaqat o'g'irlik qilgani, balki, qonun tili bilan aytganda, «xavfli retsivist» darajasiga yetgani to'laligicha fosh bo'ldi. Bu atama shunchaki huquqiy ta'rif emas – u jamiyat

tanasidagi tuzalishi qiyin bo'lgan og'riqli yara, tuzalish yo'lga kirishni istamagan kimsaning ma'naviy qiyofasi.

Ayanchlisi shundaki, bu egri yo'lning intihosi allaqachon ma'lum edi. Zero, birinchi xatodan xulosa chiqarilmagan joyda, ikkinchisi muqarrar ravishda takrorlandi. Jamol esa har galgi jinoyat bilan o'zini qing'ir ishlar botqog'iga yanada chuqurroq botayotganini anglamadi.

Biroq hayot qonunlari nihoyatda oddiy va qat'iy: inson adolatdan qanchalik qochmasin, baribir qachondir uning qarshisida hisob berish uchun to'xtashga majbur bo'ladi.

Adolat tarozisi

Jinoyat ishlari bo'yicha Chor-toq tuman sudida o'qilgan hukm Jamolning «jinoiy sarguzashtlari»ga uzil-kesil nuqta qo'ydi. Sud uning avvalgi o'talmay qolgan jazo muddatini ham inobatga olib, qonun doirasida qarorini e'lon qildi: 5 yil-u 1 oy ozodlikdan mahrum qilish, qattiq tartibli koloniyada jazo o'tash. Bu hukm – faqat bir shaxs taqdiriga chiqarilgan hukm emas, balki adolatning muqarrarligiga berilgan yana bir tasdiq edi.

Jamol Nazirov endi kamida besh yil temir panjaralar ortida yashaydi. U yerda unga na bankomatlar, na soddadil «o'ljalari» va na aldovdan yo'li bilan topilgan pullar hamrohlik qiladi. Endi uning yolg'iz sirdoshi bo'lib vijdon azobi (agar u hamon uyg'oq bo'lsa) va boy berilgan beg'ubor yoshlikning achchiq xotiralari qoladi. Afsus...

Abrorjon SADIROV,
jinoyat ishlari bo'yicha
Chortoq tuman sudining raisi.
Jahongir TO'XTASINOV,
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.

Tarix ko'zgusi

MUZEYGA BORASIZMI

yoki

CHOYXONAGA ?

Muzeylar tarix ko'zgu-si sifatida millatning madaniy uyg'onishi, shonli tariximiz va ajdodlarimizning boy ilmiy va ijodiy merosi bilan tanishish, ulardan faxrlanish, milliy g'urur va qadriyatlarni kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi.

So'nggi yillarda yangi muzeylar tashkil etildi, eskilari ta'mirlandi. Muzeylarning ilmiy konsepsiyasi milliy g'oya asosida qayta tuzilib, ekspozitsiyalari zamonaviy texnologiyalar asosida tubdan yangilandi.

Ma'lumotlarga ko'ra, 1980-yillarda O'zbekistonda 33 ta muzey mavjud bo'lgan bo'lsa, 2000-yilga kelib muzeylar soni 88 taga, 2010-yilda 105 taga, 2017-yilda 121 taga yetgan. Bugungi kunda mamlakatimizdagi muzeylar soni (fili allari bilan birgalikda) 138 tani tashkil etmoqda. Hududlar kesimida eng ko'p muzeylar Toshkent shahri (30 dan ortiq), Buxoro viloyati (19 ta), Farg'ona va Samarqand viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi.



Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyining filiallari, 2020-yilda poytaxtimizda Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan G'alabani 75 yilligi arafasida foydalanishga topshirilgan G'alaba bog'i majmuasidagi «Shon-sharaf» muzeyi, 2020-yilda O'zbekiston tarixi davlat muzeyining filiali sifatida tashkil etilgan Toshkent muzeyi

Toshkentdagi Hazrati imom, Shayx Xovand Tohur, Zangiota majmualari, Ko'kaldosh madrasasida, Termizdagi Sulton Saodat, Qirq qiz, Hakim at-Termiziy majmualarida, Shahrisabzdagi Oqsaroy, Dorut-tilovat, Gumbazi Sayyidon, Dor us-saodat majmualarida ham olib borildi. Buyuk allomalarning nomlari bilan ataladigan 50 dan ortiq ziyoratgohlar, muqaddas qadamjolarida restavratsiya va ta'mirlash ishlari olib borilib, turistik marshrutlarga kiritilmoqda.

Bundan tashqari, Davlatimiz rahbarining tashabbuslari asosida ko'plab davlat va madaniyat arboblari hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan muzeylarning, xususan, Erkin Vohidov uy-muzeyi (2016), Marg'ilon shahrida Erkin Vohidov memorial muzeyi (2019), Hamid Olimjon va Zulfiya muzeyi (2017), Shayxontohur tumani, Abdulla Qodiriy yashagan uyida Abdulla Qodiriy uy-muzeyi, Abdulla Qodiriy nomidagi istirohat bog'i hududida Abdulla Qodiriy memorial muzeyi (2019), Toshkent viloyati Qibray tumanidagi Do'rmon ijod uyi hududida Abdulla Oripovning uy-muzeylarining (2026) tashkil etilishi xalqimizning asl farzandlari, adabiyot va san'at ahliga ehtirom ifodasi sifatida yosh avlodda milliy qadriyatlarga hurmat, Vatani va millat taqdiriga daxldorlik tuyg'ularini mustahkamlashda muhim vosita bo'lishi bilan birga, Yangi

2024-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizdagi eng ko'p tashrif buyuruvchilarga ega bo'lgan muzeylar 5 taligini grafikda ko'rishingiz mumkin.

Shuningdek, Nukus shahridagi I.V.Savitskiy nomidagi davlat muzeyi ham tashrifchilar, ayniqsa xorijiy sayyohlar bilan gavjum maskanlardan hisoblanadi.

Shu o'rinda ana shunday ezgu maqsadlar yo'lida katta mablag'lar evaziga bunyod etilayotgan turli muzeylarga aholining tashrifi qay darajada, bugungi yoshlarimiz ushbu muzeylar va ulardagi noyob eksponatlarni qiziqib tomosha qilyaptimi, degan haqli savollar tug'iladi.

Ba'zan atrofimizdagi odamlar bilan sayohat haqida suhbatlashganimizda, deydik O'zbekiston shaharlaridagi diqqatga sazovor manzillar, ayniqsa, hududlarning o'ziga xos ovqatlari haqida ko'p gapiriladi-yu, xolis tan olib aytish kerak, muzeylar yoki u yerda saqlanayotgan noyob osori-atiqalar to'g'risida kam gaplashamiz.




O'z navbatida ushbu muzeylardagi eksponatlar soni ham so'nggi 30 yilda qariyb 2 baravar ko'paygan. Yurtimizdagi muzeylarda o'zbek va jahon xalqlari tarixi va madaniyatiga doir jami 2 736 000 ta turli eksponatlar saqlanadi.

Yaqin yillarda ko'plab yangi muzeylar tashkil etildi. Xususan, Nukus shahrida va viloyat markazlarida barpo etilgan

yurtimiz tarixining hali to'liq o'rganilmagan sahifalarini arxiv hujjatlari, noyob eksponatlar va zamonaviy ko'rgazma vositalari orqali to'laqonli yoritib berganligi bilan tashrif buyuruvchilarning qiziqishlariga sabab bo'lmoqda.

Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon, Qarshidagi noyob moddiy madaniy yodgorliklar restavratsiya qilindi va ta'mirlandi. Xuddi shunday ishlar



Muzeylar grafigi

O'zbekistonning madaniy siyosati, milliy xotirani tiklash va milliy o'zlikni anglash nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ayni vaqtda ushbu muzeylar mamlakatimizda madaniy turizmni rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Tahlillarga ko'ra, so'nggi yillarda muzeylar soni va eksponatlarining boyib borishi aholi va xorijlik sayyohlarning qiziqishini yanada oshirib, tashrif buyuruvchilar va sayyohlar oqimining ko'payishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Xususan, statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizdagi muzeylarga 2010-yilda 4,9 mlndan ziyod, 2015-yilda 5,4 mlndan, 2019-yilda 7,7 mlndan ortiq insonlar tashrif buyurgan. 2020-2021-yillardagi pandemiya muzeylarga tashriflar sonini kamayishiga sabab bo'lgan bo'lsa-da, so'nggi yillarda yana o'sish tendensiyasi kuza-tilmoqda.

Yoki ko'pchilik yurtimiz muzeylarida mavjud bo'lgan noyob gavharlardan bexabar yoki muzeyga ketadigan vaqtini choyxona, restoran yoki bozorda o'tkazishni afzal biladigan toifadagi hamyurtlarimiz ko'p.

Shu bois, muzeylarga bag'ishlangan turkum ko'rsatuvlar, ijtimoiy tarmoqlar uchun maxsus targ'ibot lavhalarini tayyorlab, doimiy targ'ibot qilib borilsa, ta'lim muassasalari, mehnat jamoalari tomonidan uyushgan holda muzeylarga tashriflar tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo'lardi. Zero, O'zbekiston muzeylari o'zining fondi noyob eksponatlari bo'yicha dunyoning aksariyat muzeylaridan boy bo'lsa bo'ydirki, aslo qolishmaydi. Bunday noyob xazinadan bahramand bo'lish va uni kengroq targ'ib etish ham aslida vatanparvarlikning bir ko'rinishidir.

Elbek NORMO'MINOV,
Ichki ishlar vazirligi
muzeyi boshlig'i, mayor.

Iftixor

**KICHIK SERJANTNING
CHEMPION QIZI**

(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

Murosasiz bahslarda 55 kg vazn toifasida ishtirok etib, finalda qozog'istonlik Aruna Shalmanni mag'lubiyatga uchratgan Bahora Mahmudjonova mutaxassislar va muxlislar e'tiborini qozondi.

Yana bir e'tiborli jihati Bahora ichki ishlar organi xodimining farzandi. Dada-si, kichik serjant Hojiakbar Qo'chqorov Qo'qon shahar IIB Ta'minlash va xizmat ko'rsatish bo'limida haydovchi bo'lib xizmat qiladi.

– Qizim bolaligidan sportga qiziqdi. Qiz bola bo'lganligi sababli, sportga berishda, ota sifatida biroz ikkilandim. Ammo onasi bilan buvisi «O'zi qiziqapti, keling sport klubiga beraylik, o'zini bir sinab ko'rsin-chi», deyish-gach, rozi bo'ldim, – deydi kichik serjant Hojiakbar Qo'chqorov. – Shu bois, 2021-yilda tumandagi «Samandarak» boks maktabiga berdik. Uning erishib ke-

layotgan yutuqlari oilamiz uchun quvonch ulashardi. Ammo bu gal – Osiyo chempioni bo'lgani boshqacha ta'sir qildi. Rosti, ich-ichimdan quvondim, faxrlandim.

Ichki ishlar organi xodimi asosiy vaqtini xalq xizmatida o'tkazadi. Farzandlar tarbiyasida esa ona asosiy rol o'ynaydi. Qo'chqorovlar oilasida ham shunday bo'ldi.

– Turmush o'rtog'im Xorazm viloyatida ishlagan paytida biz ham o'sha yerdahashaganmiz, – deydi oila bekasi Gulsanamxon. – Qizimdagi sportga havasni o'shandayoq sezib dastlab yengil atletika to'garagiga olib borgandim. Keyinchalik Farg'onaga qaytganimizdan so'ng u to'satdan boksga qattiq qiziqdi. Hozir u Bag'dod tumanidagi 37-umumta'lim maktabining 8-sinfida o'qish bilan birga, darsdan so'ng «Samandarak» boks klubiga qatnaydi.



Darvoqe, lavhamiz qahramoni shu yilning fevralida Toshkent shahrida boks bo'yicha kichik o'smirlar o'rtasida o'tkazilgan O'zbekiston chempionatida 55 kg vazn toifasida qatnashib oltin medalni qo'lga kiritdi.

–Bahoraning onasi klubimizga olib kelgan birinchi kuniyoq undagi o'ziga xos xarakter, sportchiga xos xislatlarni ko'rganman, – deydi murabbiyi Ziyodbek Bahodirov shogirdining g'alabasidan quvonib. – Bahoraning kelajagi porloq, yuksak dovonlarni zabt etib,

Vatanimiz bayrog'ini baland ko'tarishiga ishonaman.

Chempion qiz musobaqadan qaytgan kuni tuman markaziy ko'chalarida tumonat odam yig'ildi. Tuman hokimi Hojiqo'zi Isaqov va keng jamoatchilik vakillari Bahora hamda uning murabbiysini tantanali tarzda kutib oldilar. Vatanimiz bayrog'ini ko'targan, qo'lida guldastalar tutgan o'g'il-qizlar, duoga qo'l ochgan bobo-yu-momolar – barchasi chempion qizni sharaflar edi. Qo'chqorovlar oilasi yashaydigan Qo'shchi-

nor mahallasida ham katta bayram bo'ldi.

– Yutuqlarim zamirida avvalambor Yurtboshimizning yoshlar sportini rivojlantirishga berayotgan e'tibori mujassam, – deydi Bahora Mahmudjonova. – Bundan tashqari, bobom-buvim, otanonam, murabbiylarimning hissasi juda katta. Kelajakda Olimpiada chempioni bo'lib, Vatanimiz bayrog'ini yanada baland ko'tarishni o'z oldimga maqsad qilganman.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.
Farg'ona viloyati.

Salomatlik

**SOG'LOM UMURTQA –
FAOL HAYOT GAROVI**

Umurtqa pog'onasi inson tanasining asosiy tayanch va harakat tizimi hisoblanadi.

Ko'p hollarda noto'g'ri o'tirish, uzoq vaqt harakatsiz qolish va og'ir yukni noto'g'ri ko'tarish unga zarar yetkazadi.

Oqibatda bel sohasida kuchli og'riq paydo bo'ladi. Bu bir qancha noqulayliklar keltirib chiqaradi: odam kun davomida o'zini o'ng'aysiz sezadi, tik turgan yoki o'tirgan holatda ham bezovtalik hissini tuyadi. Bunday ko'ngilsizliklar kuzatilmasligi uchun quyidagi tavsiyalarga amal qilish maqsadga muvofiqdir.

* Gavdani tik tutishga ahamiyat qarating. Qomatni adl holatda saqlash uchun kuniga bir necha marotaba oddiy va samarali mashqni bajarishga vaqt toping. Devorga teskari turgan holda unga yopishing, bir vaqtning o'zida ensa sohasi, yelka va kuraklar hamda tovonlar ham tegib turishiga ahamiyat qarating. Shu holatda bir necha daqiqa turing. Kun davomida charchoqdan bukchayib qolganingizni his etganda ushbu mashqni eslang va shu holatda qomatni rostdashga harakat qiling.

* Oyoqlarni chalishtirib o'tirmang. Bu ko'pchilikka xos odat bo'lib, afsuski, juda zararli hisoblanadi. Bu holatda ko'p o'tirish umurtqa pog'onasi-ning pastki qismida og'riqlar yuzaga kelishiga va qon aylanishi buzilishiga sabab bo'ladi.

* Og'ir yuk ko'tarib, tanani ortiqcha zo'riqtirmang. Agar yo'l-yo'lakay og'ir narsalarni tashishga to'g'ri kelsa, og'irlikni har ikki qo'lga teng taqsimlagan holda ko'tarish tavsiya etiladi. Bunday paytda yon taraflarga egilmagan ma'qul, chunki bu vaqtda

bel tik holatda turishi kerak. Yukni shoshganicha bir zarb bilan ko'tarish yoki faqat bir tarafga tushgan og'irlik umurtqani jiddiy jarohatlashi mumkin.

* Uzoq vaqt tik turishga to'g'ri kelsa, gavda holatini tez-tez o'zgartirib turing. Bunda har 7-10 daqiqada goh bir, goh ikkinchi oyoqqa tayanib turish muhim. Bu umurtqaning zo'riqishiga yo'l qo'ymay, qomatni tik holda saqlashga va oyoqlarni toliqtirmaslikka yordam beradi.

* O'ta yumshoq va o'ta qattiq bo'lmagan to'shakda uxlang. To'g'ri tanlangan yotoq beldagi og'riqlar-ning oldini olishda eng samarali usuldir. Mutaxassislar o'rtacha qattqlikdagi to'shakda yotishni maslahat berishadi. Bu umurtqa holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Toshkent shahar IIBB Tibbiyot bo'limi poliklinikasi shifokor-nevrologi, kapitan Ilhom NAVRO'ZOV tavsiyalari asosida Gulchehra AZIMOVA tayyorladi.

Genri SLEZAR

TARKI ODAT – AMRI MAHOL

(Oxiri. Boshlanishi o'tgan sonlarda).

O'sha kechasi Ralf uyga qaytib, ayolning ho'ngrab yig'lab o'tirganini ko'rdi.

– Azizam, nima bo'ldi?

– O, Ralf...

Ralfning yuzi tundlashdi.

– Yana shu ishga qo'l urdingmi?

Qayg'uga cho'kkan ayol boshi bilan tasdiq ishorasini qildi.

– Bu safar nimani olding?

– «Trevellz», – yig'idan boshini ko'tara olmasdi Rut.

– Nima?

– «Trevellz». Zargarlik do'koni.

– Yo'q, Rut! Faqat qimmatbaho ziynat buyumlarimas!

– Sen tushunmayapsan. Men olmadim. Men o'g'irladim, Ralf. Tasavvur qilayapsanmi? Men ongli ravishda haqiqiy o'g'rilikka qo'l urdim.

Ralf o'zini ancha bosib olgach, hammasini bir boshdan surishtirdi.

– Men judayam qo'rqib ketdim, – dedi ayol. – Nima qilishga hayron edim. – So'ng erining yengidan mahkam ushlab oldi. – Ralf, onam va sen taklif etgan ishni qilaman. Shifokorga ko'rinaman.

– Balki, davolanish uchun endi kech bo'lgandir, – dedi eri. – Bu senga ip g'altagi yoki sumka emas, Rut. Bu qimmatbaho narsa. Yolg'iz Xudoga ayon, qanchalik qimmatbaho ekanligi.

– Lekin ular meni bunga majbur qilishdi-ku! Menga po'pisa qilishdi!

– Aynan shuni politsiyaga aytamiz!

* * *

Sochlariga oq oralagan, ziyolilarga xos ko'rinishga ega bo'lgan politsiyachi – kapitan Samyuel Rayt ayolning hikoyasini ishonchsizlik bilan tingladi. Rut Mudi voqeaning barcha tafsilotlarini so'zlab bergach, politsiyachi dedi:

– Menga qarang, Mudi xonim. Biror narsani yashirayotgan bo'lsangiz, bunday qilmaslikni maslahat bergan bo'lardim. Hikoyangiz to'qima deya-yotganim yo'q. Bunday voqeani to'qib

chiqarish mumkin emas. Biroq o'sha kimsalarni aniqlash uchun birorta kalit bersangiz edi...

– Yolg'on gapirish unga nima uchun kerak? Bundan nima naf? – dedi Ralf.

Kapitan bosh silkidi:

– Foydami? Misol uchun, u qiymati sakkiz-to'qqiz ming dollarlik

Politsiyachi bir muddat xonani qadamlari bilan o'lchayotgandek u yoqdan, bu yoqqa yurdi.

– Ular haqida yanada to'liqroq ma'lumot berganingizda edi. Bizga ulardan birining yuzi kuygan misoli qizarganligi ma'lum, xolos. Har ikkisinin ko'rinishini «oddiy» deb ta'rifladingiz. Bu kam.

– u mehmonxonani tark etganidan keyin...

Ralf birdan barmoqlarini qarsilatladi.

– Ming dollar! Ishni bajargach, rafiqamga ming dollar jo'natishga va'da berishgan-ku. Axir, bu rafiqam begunoh ekanligini isbotlamaydimi?

– Janob Mudi, ming dollardan umid ham qilmang! Agar ayolingiz to'g'ri so'zlayotgan bo'lsa, bu shaxslar endi dom-daraksiz ketdi.

Yana ko'z yoshlar oqa boshladi va Rut yuzini artish uchun sumkasidan dastro'mol qidira boshladi. Dastro'molning bir uchi bilan nam ko'zlarini artdi. Sumkani berkitayotganda bir narsa uning e'tiborini o'ziga tortdi. Rut uni qo'lga olib, qattiq tikilib qoldi. Aylantirib, diqqat bilan ko'zdan kechirdi. Boshini ko'targanda esa, ayolning ko'zlari chaqnaq ketdi.

– Kapitan!

– Ha, xonim?

– Sizga ular haqida ma'lumot kerakmi? Oteldagi odamning ism-sharifi yordam bera oladimi?

– Ism-sharifi? – ikki qo'lini beliga qo'ydi kapitan. – Ustimdan kulyapsizmi? Haqiqatan ham uning ismini aytmoqchimisiz?

– Ha. Ayta olaman! – dedi Rut va birdan qattiq kulib yubordi. Bu kulgu Ralfni xavotirga qo'ydi.

– Mana, – dedi ayol topilmani politsiyachiga uzatib. – Nega bunday qilganimni bilmayman. Lekin buni kecha o'sha oteldagi xonadan olgandim.

Kapitan qo'lidagi narsani obdan ko'zdan kechirdi. Bu ancha qimmat turadigan tillarang, qora qopqoqchali sharikli ruchka edi. U zarhal harflar bilan o'yib yozilgan yozuvga yanada sinchiklab tikildi: «Garrison V. Moyer».

So'ng Rutga tabassum qilib, qo'lga telefon go'shagini oldi. Politsiya uchastkasining raqamini u mana shu ruchkaning bir uchi bilan terardi.

Rus tilidan

Gulchehra AZIMOVA tarjimasida.



javohir to'g'nag'ichga ega bo'lishi mumkin. Balki u «Trevellz»da o'zini tanib qolishganini bilib, to'qima hikoya bilan qutulib qolmoqchidir. Ammo men sudya kursisida o'tirmayman, janob Mud. Men politsiyachiman.

– Axir, bu haqiqat-ku, – mungli ohangda dedi Rut. – Menga yordam bering, aldayotganim yo'q.

– O'sha mehmonxonani tekshiringiz-ku, o'sha kuni xona band qilinganini bilasiz-ku.

– Mudi xonim, kimdir xonani band qilganini bilamiz. U odam tashrif buyuruvchilar kitobida Klivlendlik janob Fred Jonson deb imzo chekkan. Bu o'ylab topilgan ism-mi-yo'qmi, buni aniqlashning iloji yo'q. Ayniqsa, hozir,

Ibratli dunyo

Bu Yaponiyada bo'lgan. Poytaxt gazetalardan biri quyidagi mazmundagi e'lonni joylashtirdi: «Ota-ona sotiladi: ota – 70 yoshda, ona – 65 yoshda. Narxi 1000 iyena, bir iyena ham kam emas!».

G'alati e'lonni o'qigan odamlar hayron bo'ldi: «Qanaqa, kunlarga qoldik! Bolalar allaqachon o'z ota-onalarini sotishmoqda-ya!». «Hukumat bunga qanday ruxsat berdi?!» e'tiroz bildira ketdi ular. E'lon shov-shuvga sabab bo'lib, ushbu sensatsiya uylarda va ko'chada muhokama qilina boshlandi.

E'lon chiqqan gazeta yaqinda avtohalokatda vafot etgan sevimli ota-onasini endigina dafn qilgan yosh oila qo'lga tushdi. Kimningdir ota-onasini sotish istagi motamda bo'lgan juftlikka haqoratli tuyuldi. Ular bechora ota-ona bu holatda o'zini qanchalik baxtsiz his etishini tasavvur qilishdi. Axir bunday farzandlardan nimani kutish mumkin? Shunday deyishdi-yu, yosh oila keksalarni sotib olishga qaror qildi.

Kerakli miqdordagi mablag'ni olib, er-xotin gazetada yozilgan manzil tomon yo'lga chiqdi.

OTA-ONA SOTILADI...



Belgilangan joyga yetib kelganlarida, ular gullar bilan o'ralgan hashamatli bog'li koshonaga duch kelishdi. Reklamada xatolik bor deb o'ylashdi, manzilni tekshirib ko'rib, baribir qo'ng'iroq tugmachasini bosishga qaror qilishdi.

Eshikni yoqimli tabassum bilan keksa bir janob ochdi. Ular unga gazetadagi e'lon bo'yicha kelgani, o'zlari yaqinda ota-onalarini yo'qotib, keksa er-xotinni sotib olishga qaror qilgani ha-

qida gapira boshladi. Erkak ularni qiziqish bilan tingladi, lekin hech narsa demadi. Er-xotin noto'g'ri manzilga tushib qolgan va janobni bezovta qilganliklari uchun kechirim so'rab, ketmoqchi bo'lib turgandi. U so'z boshladi:

– Yo'q, siz adashmadingiz, uyga kiring! – taklif qildi hayajonlangan chol. – Hozir xotinimni chaqiraman.

U tezda xotini bilan qaytib keldi va tushuntira boshladi:

– Bilasizmi, biz bu uyning egasimiz. Boshqa qimmatbaho mulklarimiz ham yo'q emas. Farzandlarimiz yo'q, lekin biz o'z boyliklarimizni yaxshi odamlarga qoldirmoqchimiz. Shuning uchun unga faqat munosib odam javob beradi, deb o'ylab, bunday e'lonni berishga qaror qildik. To'g'risini aytsam, bunday «mato»ga xaridor topilishiga ham shubha qilgandik. Sizning tilagingiz hurmatga sazovor va bizga quvonch keltirdi. Endi barcha narsalarimizni meros qilib qoldirishga arziydigan odamlarimiz borligiga ishonchimiz komil...

Bahora MUHAMMADIYEVA tayyorladi.

Ikkinchi iste'dod

Toshkent shahar IIBB Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash xizmati qoshidagi «Nihol» ijodiy jamoasi a'zolari yaqinda o'zlarining yuksak iste'dodlarini namoyish etdilar. Jamoa tomonidan namoyish etilgan «Urush qurbonlari» nomli dramatik spektakl tomoshabinlar qalbini larzaga keltirib, barchada unutilmas taassurot qoldirdi.

QALBLARNI ZABT ETGAN SAHNA ASARI

Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan tayyorlangan sahna asariga O'zbekiston davlat satira teatrining katta aktyori Muslim Nuraliyev rejissorlik qildi. Spektakl ssenariysi esa IIBB MMI va KBTX mas'ullari hamda ijodiy jamoa a'zolari hamkorligida yozildi.

Mazkur sahna asarida Ikkinchi jahon urushi davridagi o'zbek xonadonining fojiasi, janggohlarda jon fido qilgan mard o'g'lonlar va front ortida qolgan ayollarning or-nomusi, matonati yuksak mahorat bilan ochib berilgan. E'tiborli jihati, undagi barcha murakkab rollarni professional aktyorlar emas, balki kundalik xizmat vazifasini bajarib kelayotgan osoyishtalik posbonlari maromiga yetkazib ijro etishdi.

Muvaffaqiyatli chiqqan spektakl Toshkent shahar IIBBda o'tkazilgan bayram tadbirida namoyish etilib, tomoshabinlar va bosh boshqarma rahbariyati tomonidan yuqori baholandi.

Qisqa fursat ichida tomoshabinlar mehrini qozonib, olqishlarga sazovor bo'lgan ijodiy jamoa gastrol safariga chiqishga ham ulgurdi. Xususan, Sirdaryo viloyati ichki ishlar organlari xodimlari uchun tashkil etilgan maxsus namoyish ko'p sonli tomoshabinlarning davomli olqishlariga sazovor bo'ldi.

Asarning muvaffaqiyatli chiqishida unda rol ijro etgan har bir xodimning yuksak mahorati alohida ahamiyat kasb etdi. Ayniqsa, sahnadagi har bir harakat va his-tuyg'uning jonli aks etishida safdor Samandar Tolipov (Azizjon), katta serjant Shahrizod To'laganov (Murod ota), safdor Parizoda Xudoyberdiyeva (Sadoqat), O'zbekiston milliy akademik drama teatri aktyori Suhrob Isomov (Sodiqjon) hamda podpolkovnik Abduxoliq Roziqov (Ro'ziboy pochta) yaratgan obrazlar o'ziga xos poydevor bo'lib xizmat qildi.

– Ichki ishlar organlarida 2013-yildan buyon xizmat qilib kelaman, – deydi spektaklda Murod ota rolini ijro etgan Olmazor tumani IIOFMB JTSB PPX otryadi guruh komandiri, katta serjant Shahrizod To'laganov. – Rejissor tomonidan mas'uliyatli rol menga topshirilganida, to'g'risi, avvaliga biroz cho'chidim. Ayniqsa, urushdan qoraxat kelgach, oila sha'nini asrash va nabirasi kamolini ta'minlash niyatida kelinini kichik o'g'liga uzatishga qaror qilish sahnasi mendan juda katta ichki dard va kuch talab qildi. Ishonchni oqlash uchun bor vujudim bilan rolga kirishib ketdim. Spektakl yakunida meni doim komedik rollarda ko'rishga o'rganagan hamkasblarim, faxriylarimizning



olqishlarni ko'rib, mehnatimiz behuda ketmaganidan mamnun bo'ldim.

O'zlarining ikkinchi iste'dodini a'lo darajada namoyon etayotgan xodimlar tomonidan sahnalashtirilgan ushbu asar soha vakillarining yuksak ma'naviyati va ichki madaniyatidan ham dalolatdir.

«Nihol» ijodiy jamoasining san'at chashmasi aslo qurimasin, yuksak parvozlar hamisha hamroh bo'lsin!

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

Ogohlik

KATTA HAYOTDAGI ILK QADAM tartib-qoidalarga zid bo'lmasin



Maktablarda «So'nggi qo'ng'iroq» tadbirlari o'tkazilishiga ham sanoqli kunlar qoldi. Tez kunlarda bitiruvchilar qadrdon maktabi, mehribon ustozlari bilan xayrlashadilar. Bu nafaqat yoshlar, balki ota-onalar hamda o'qituvchilar uchun ham g'oyat quvonchli va hayajonli voqeadir.

So'nggi vaqtlarda ayrim o'quvchi yoshlarning haydovchilik guvohnomasiga ega bo'lmay turib, avtomashina boshqarishi va buning oqibatida mudhish yo'l-transport hodisalari sodir bo'lishi kuzatilmoqda.

Ichki ishlar vazirligi Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati tomonidan mamlakatimizda «Diqqat, bolalar!» profilaktik tadbiri e'lon qilingan bo'lib, yo'llarda voyaga yetmaganlar ishtirokidagi avtohalokatlarning oldini

olish maqsadida keng ko'lamlı targ'ibot va reydtadbirlari olib borilmoqda. Aniqlangan har bir qoidabuzarlik uchun jazo muqarrarligi ta'minlanadi.

Aziz bitiruvchilar!

Yo'l harakati qoidalari bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga, haydovchilik huquqiga ega bo'lmay mashina haydamang, o'zingiz va o'zgal hayotini xavf ostiga qo'ymang!

Hurmatli ota-onalar!

«So'nggi qo'ng'iroq» tadbiri bahona farzandingizga avtomashina kalitini aslo topshirmang! Bir lahzalik quvonchi uchun ularning kelajagiga ziyon yetishiga sababchi bo'lib qolmang.

Bitiruvchilarning mustaqil hayotdagi qadamlari mavjud tartib-qoidalarga rioya etgan holda, faqat quvonchlarga boy bo'lishini tilaymiz!



MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir

podpolkovnik
Xurshidbek RO'ZIYEV

Bosh muharrir
o'rinbosarlari

podpolkovnik
Azizjon FAYZIYEV
mayor
Aziza BOHODIROVA

Mas'ul muharrir

Erkin SATTOROV

Veb-dizaynerlar

Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Navbatchilar

Gulnoza TURG'UNBOYEVA
Radik TUMPAROV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Obuna masalalari
bo'yicha:
71-231-38-74;
97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz
E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami h/r
23402000300100001010.
Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va
moliya vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v
460010860262877031101179003
STIR 200637499.

Gazeta O'zbekiston matbuot va
axborot agentligi tomonidan
2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam
bilan ro'yxatga olingan.

Manzilimiz: 100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.

Buyurtma № 1435.
Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3.
Hajmi – 6 bosma taboq.
49851 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:

Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida
chop etildi.

Korxonaning manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1^A-uy.